

O`zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi  
Ajiniyoz nomidagi Nu`kus davlat pedagogik instituti  
Tabiiy fanlar fakul`teti

---

---

Geografiya o`qitish metodikasi kafedrası

---

---

Geografiya o`qitish metodikasi talim yonalishi 4-b kurs talabasi  
Annamuratova Nasiba Yonusovnaning

**“Geografiya ta’limida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil  
etishning usul va vositalari”**

**mavzusidagi**

***BITIRUV-MALAKAVIY  
ISHI***

**Ilmiy rahbar:**

**geografiya kafedrası katta**

**o`qituvchisi Abdiramanov J.B.**

**Kafedra mudiri v.v.b:**

**Abdiramanov J.B.**



**NUKUS - 2016**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATIGA QO‘YILADIGAN USLUBIY TALABLAR.....</b>	<b>8-28</b>
<b>1.1</b> Mustaqil ishlar va ularni tashkil etishning nazariy asoslari	<b>8</b>
<b>1.2</b> Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari.....	<b>12</b>
<b>1.3</b> Mustaqil ishlarning turlari.....	<b>20</b>
<b>II-BOB. MAKTAB GEOGRAFIYA TA’LIMIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI.....</b>	<b>29-57</b>
<b>2.1</b> Maktab geografiya ta’limida mustaqil ishlarni tashkil etishning usul va vositalari.....	<b>29</b>
<b>2.2</b> Maktab geografiya kurslari bo’yicha ayrim mavzularni o‘qitishda mustaqil ishlarni tashkil etish usullari.....	<b>32</b>
<b>2.3</b> O‘qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarida mustaqil ishlarning tutgan o‘rni.....	<b>51</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>58</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>60</b>

## KIRISH

*«Bugungi kunning eng muhim vazifasi – hayotimizning barcha sohalarida yangicha fikrlaydigan, murakkab damlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, iymoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni tarbiyalash, ularga ishonch bildirishdan iboratdir».*

*I.A.Karimov*

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”da har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Buni amalga oshirishning asosiy vositasi esa shaxsning intellektual va ma’naviy-ahloqiy, kasbiy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘langan uzluksiz ta’lim tizimidir. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darjasiga ko‘tarildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning XVI sessiyasida quyidagi fikrni keltirib o‘tadi: “Biz o‘z oldimizga qanday vazifani qo‘ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug‘ilmasin, gap yana kadrlarga borib taqaladi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o‘rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tarbiyalashimizga bog‘liq”.

Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga nafaqat “biladigan” balki “fikrlaydigan” va amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallay oladigan, o‘zida o‘z sohasi uchun zaruriy sifatlarni faol tarzda shakllantiruvchi mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda.

Umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida olib borilayotgan islohotlar ta’lim uslublari va vositalarini takomillashtirishni, ta’lim va tarbiya sifatini yanada oshirishni talab etadi. Bu talablar avvalo ta’lim-tarbiyaning asosiy shakli bo‘lgan darsga taalluqlidir. Darsni takomillashtirish maqsadida ta’limning turli shakllari va metodlarini yaratish, o‘quvchilar faolligini,

mustaqilligini va ijodini oshirish, maktabni hayot bilan bog'lash pedagogik izlanishlarning asosini tashkil etadi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talablar o'quvchilarning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ilmiy fikrlash va o'quv faniga qizqishini kuchaytirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iborat.

O'quvchilarni o'quv predmetiga qiziqtirish o'quv materialining mazmunigagina bog'liq bo'lmay, balki uni o'rganish uchun qo'llaniladigan uslub va usullarga ham bog'liqdir. Geografiya darslarida tashkil etiladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning amaliy faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqillik, diqqat, xotira, tafakkur, solishtirish, ijodiy qobiliyat va boshqalarni rivojlantiradi. Bu esa bitiruv ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Xorij va Rossiya pedagogikasida mustaqil ishlar borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rossiyalik olimlar L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, N.G.Dayri, B.P.Esipov, I.I.Ilyasov, I.L.Naumchenko, N.D.Nikandrov, P.I.Pidkasistiy, V.L.SHatunovskiy va boshqalar o'tgan asrning 60 – 80– yillarida “mustaqil ish” mohiyatini, ushbu atamaning ham keng, ham tor ma'nolarini, uning ta'limdagi o'rnini belgilash, o'quvchilar mustaqil ishlarini faollashtirishga ko'maklashuvchi omillarni aniqlash borasida faol va samarali ishlarni amalga oshirganlar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari, mustaqil ish turlari va ularni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari rus olimlari G.S.Asanova, V.P.Bespalko, M.A.Danilov, B.P.Yesipov, M.I.Eretskiy, G.E.Kovaleva, M.K.Kovalevskaya, N.M.Koryak, A.N.Leontev, V.A.Poxmelkin, G.K.Selevko, S.A.Smatkov, N.F.Talizina va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan. O'zbekistonlik olimlardan N.Azizxo'jaeva, R.Ishmuhammedov geograf olimlardan O.Mo'minov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida ham mustaqil ishlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu tadqiqotlarda o'qituvchining mustaqil ishlarni tashkil etishdagi roli va faoliyati mazmuni, mustaqil ishlarni faollashtirishga to'sqinlik qiluvchi sabablar, ularni bartaraf etish vositalari belgilab berilgan.

Mustaqil ishlar mustaqil bilish faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida A.I.Vlaznev, V.I.Zagvyazinskiy, I.Ya.Lerner, V.Ya.Lyaudis, G.I.Saransev, A.N.Riblova, P.I.Pidkasistiy, Z.M.Xautieva tadqiqotlarida tekshirilgan va ushbu tadqiqotlarda o'quvchilar mustaqil ishlarini faollashtirish hisobiga ta'lim sifatini oshirish imkoniyati ta'kidlanadi.

SHu bilan birgalikda ta'kidlab o'tishimiz joizki, tadqiqotchilik yondashuvlarining xilma – xilligi hamda ko'p rejalarni o'z ichiga olganligiga qaramasdan, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish muammosi to'liq hal etilmagan. Pedagogik adabiyotlarda mustaqil ish mohiyati bo'yicha bir xil qarashlar mavjud emas, ularda o'qituvchining mustaqil ishlarni tashkil etishdagi roli va uning bu boradagi faoliyati mazmuni turlicha belgilangan, o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarish ketma – ketligi ustidan mavjud nazoratni amalga oshirish metodikalari, o'quv topshiriqlarini bajarishga yordamlashish usullari yaxshi ishlab chiqilmagan, mustaqil ishlar samaradorligini jiddiy tarzda oshiruvchi tashkiliy vositalarni topish masalalari bo'yicha tadqiqotlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

SHuningdek, ko'pgina metodik qo'llanmalarda asosiy e'tibor mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari, mustaqil ish turlari va ularga qo'yiladigan didaktik talablarni yoritish bilan cheklanilgan. Maktab geografiya kurslari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish, topshiriqlarini ishlab chiqish bo'yicha esa yetarli darajada o'rganilmagan.

SHuning uchun mazkur bitiruv malakaviy ishda maktab geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish masalalarini o'rganishga harakat qilindi.

**BMIning tadqiqot ob'ekti va predmeti.** BMIning tadqiqot ob'ekti sifatida maktab geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish va mustaqil ishlarni o'quvchilarning amaliy faoliyatida tutgan o'rni tanlandi. Ishning predmeti esa mustaqil ishlar va ularning turlari, geografiya

darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish masalalari, mustaqil ishlarning o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berish hisoblanadi.

**BMIning maqsadi va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishning maqsadi maktab geografiya darslarida tashkil etiladigan mustaqil ish topshiriqlarini geografiya kurslaridagi ayrim mavzular bo'yicha ishlab chiqish, mustaqil ishlarni tashkil etish borasida amaliy tavsiyalar berishdan iborat. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Mavzuga taalluqli ilmiy-nazariy va amaliy ma'lumotlarni umumlashtirish, tizimlashtirish va tahlil qilish.

- geografiya darsini takomillashtirish orqali, o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy faolligi va tashabbusini oshirishda qo'llaniladigan metod va usullarda mustaqil ishlarni tutgan o'rnini aniqlash, dars jarayonida mustaqil ishlardan foydalanishning ahamiyatini tushuntirish;

- mustaqil ishlarni tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish bosqichlari, tarbiyaviy maqsadi va vazifalarini tushuntirish;

- mustaqil ishlarning turlari va ta'lim jarayonida mustaqil ishlardan foydalanish uslubiyotini o'rganish;

- maktab geografiya kurslari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish va ulardan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish. BMIda kuzatish, pedagogik eksperiment, taqqoslash kabi metodik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ilmiy yangiligi bu maktab geografiya kursi bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavzularga mos mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish, shu asosda o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning amaliy ahamiyati sifatida shuni aytish mumkinki, dars berish jarayonida mustaqil ishlardan foydalanilganda, o'quvchilarning aqliy faoliyati rivojlanadi, o'rganilgan masalani chuqurroq

o'ylashga, uning eng muhim qismini izlashga, yakun yasab, xulosalar chiqarishga imkon beradi. Pedagog va psixologlarning fikricha, mustaqil ishlarsiz ongli va mustahkam bilim berish, tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilish hamda mustaqil bilim olishni ta'minlab bo'lmaydi. BMIda tavsiya etilgan mustaqil ish ishlanmalaridan umumiy tabiiy geografiya, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kurslarini o'tishda foydalanish mumkin.

**BMIning tarkibiy tuzilishi.** Mazkur bitiruv – malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning kirish qismida BMI mavzusining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, amaliy ahamiyati yoritilgan.

BMIning matn qismi 60 betdan iborat bo'lib, mavzuga oid jadval, sxema va rasmlar keltirilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida 20 ta manba va internet saytlari mavjud.

## **I-BOB. O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATIGA QO‘YILADIGAN USLUBIY TALABLAR**

### **1.1 Mustaqil ishlar va ularni tashkil etishning nazariy asoslari.**

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” ta’lim oluvchidan mustaqil fikrlashni, eshitgan o‘quv axborotlarini ijodiy umumlashtirishni, muhim qismlarini ajrata bilishni, konspektlar yozishni, adabiyotlar ustida mustaqil bilim olishni talab etadi. Jamiyatning jadal taraqqiyoti, axborotni haddan ziyod ko‘pligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, umuman olganda, hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholay oladigan, ayni shu vaziyat uchun to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an’anaviy uslublarga tayanib dars o‘tish yetarli emas.

Hozirgi paytda an’anaviy uslublarga tayangan holda, tayyor bilimni o‘zlashtirish asosiy maqsad bo‘lmay, o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish ob’ektiv zaruratga aylandi. Buning uchun o‘quvchilarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarga o‘rgatish lozim.

Jahon pedagogikasi tajribasi bu xususiyatlarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashda mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish alohida o‘rin tutishini va ijobiy natija berishini ko‘rsatmoqda. Chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hamma ma’lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlarida berib bo‘lmaydi. Qo‘yilgan muammo va vazifalar bo‘yicha ma’lum yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerak bo‘ladigan mustaqil fikrlash ko‘nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonidagina shakllanadi va mustahkamlanib boradi.

Hozirgi kunda ilmiy va o‘quv adabiyotlarda “mustaqil ish”, “mustaqil ta’lim olish”, “o‘zini tarbiyalash”, “mustaqil o‘qish” kabi tushunchalardan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda. “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”da *“mustaqil ta’lim”*,

*“mustaqil ish”* tushunchalari bir xil ma’noni anglatib, olingan bilim, ko‘nikma va malakani mustahkamlash, qo‘shimcha materialni o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli deb qaraladi.

Mustaqil ta’limni 3 ta turga ajratish mumkin: mustaqil ish, mustaqil ta’lim (o‘rganish) va ochiq hamda distant kurslarda shug‘ullanish.

Mustaqil ish sinf xonasi yoki auditoriyada bajarilib, unda o‘tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar o‘qituvchi rahbarligida bajariladi. SHuningdek, o‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va tajriba ishlariga tayyorgarlik ko‘rish va boshqalar ham mustaqil ish tarzida bajarilishi mumkin.

Mustaqil ta’lim (o‘rganish) auditoriya va sinfdan tashqarida bajariladi. Unda ijodiy va ilmiy tadqiqot xarakteridagi ishlarni bajarish hamda bilim egallash uchun axborot izlash, yig‘ish, tahlil qilish, taqqoslash hamda xulosalash kabi faoliyatlar mustaqil amalga oshiriladi. Mustaqil bilim olish ma’lum maqsadga yo‘naltiriladi va oliy o‘quv yurtlari talabalari amalga oshirishi lozim bo‘lgan o‘quv faoliyatidir.

Ochiq va distant kurslarda shug‘ullanish esa masofaviy bo‘lib, undan rivojlangan g‘arb mamlakatlarida keng qo‘llanilmoqda. Mazkur tur ta’lim oluvchi qiziqishi va intellektual salohiyatini hisobga olingan individuallashtirgan ta’lim berishdir.

Maktabda o‘quvchilar mustaqil o‘quv faoliyatini samarali amalga oshirish uchun quyidagi mezon va talablarga rioya etish talab qilinadi:

- mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishga tizimli yondashish;
- uning barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- topshiriqlarning bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;
- mustaqil faoliyatning o‘quv-uslubiy ta’minotini yaratish va takomillashtirib borish.

Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishda maktab geografiya ta’limida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning usul va vositalarini o‘rganishga harakat qildik.

Mustaqil ish, avvalo, o'qituvchidan, shuningdek, o'quvchilardan muayyan tayyorgarlikni talab etadi. Mustaqil ishga o'quvchilarni dars jarayonida oddiy, elementar ishlardan asta-sekin murakkablashtirib o'rgatib borilishi lozim.

Geografiya fani o'qituvchisi o'quvchilarni dastlab darslikda berilgan matn, savol va topshiriqlar, diagramma va jadvallar, kartaxemalar bilan ishlashga, kartani o'qiy olish va undan mustaqil foydalana olishga, rasm va chizmalar bilan ishlashga, qo'shimcha ma'lumotnoma va lug'atlar, geografik atlaslar oxiridagi nomlar ko'rsatkichidan foydalanishga o'rgatishi lozim. YUqorida sanab o'tilgan ko'nikma va malakalar shakllantirilgach, mustaqil ish topshiriqlarini murakkablashtirib, tabiat hodisalarini kuzatish, kuzatish natijalarini ishlab chiqish, muayyan geografik ob'ektga reja asosida tavsif berish, darsliklar asosida konspekt tuzish ko'nikmalariga o'rgatib boriladi va yanada murakkabroq mustaqil ish topshiriqlarini tavsiya etish mumkin.

Agar o'quvchilar mustaqil ishlarni bajarishga oid yetarli tayyorgarlikka, bilim, ko'nikma va tajribalarga ega bo'lmasalar, ular mustaqil ishlarni bajarishda qiynaladilar, natijada kutilgan samaraga erishish qiyin bo'ladi.

O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlarga quyidagi uslubiy talablar qo'yiladi:

1. Mustaqil ish o'quvchilar qobiliyati va tayyorgarligiga mos, ular bajara oladigan, ayni vaqtda ularni fikrlash qobiliyatini, ijodiy tashabbusini rivojlantiradigan bo'lishi kerak.

2. O'quvchilarning mustaqil ishlari ilgari egallangan bilim, ko'nikma, shuningdek, tajribadan foydalanishni taqozo etadigan hamda ularni yanada rivojlantiradigan bo'lishi lozim.

3. Mustaqil ishlarning mazmuni va turini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarligiga va individual xususiyatlariga mos kelishi shart.

4. Mustaqil ishlarning mazmuni xilma-xil va qiziqarli bo'lishi nazarda tutilishi kerak. Ishning natijasi o'quvchilarga yangilik berishi shart.

5. Har bir mustaqil ish natijasi o'z vaqtida tahlil qilinishi, muhokama qilib, baholanishi, mustaqil ish natijalari esa ta'lim jarayonida foydalanilishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning geografiya darslarida mustaqil ish bajarishdagi faolligi, ishning samarasi ko'p jihatdan beriladigan topshiriqqa ham bog'liq. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish va masalalarni mustaqil bajarishga o'rgatishda geografiya kurslari bo'yicha bajariladigan mustaqil ish topshiriqlariga muayyan talablar qo'yiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Muhim tushuncha, sabab-oqibat, bog'lanishlar, dunyoqarash g'oyalarini aks ettirishga, ya'ni kurs oldiga qo'yilgan vazifalarni, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

2. Topshiriqlar bilimlarning barcha komponentlari (umumiy va xususiy tushunchalar, sabab-oqibat bog'lanishlar, qonuniyatlar, faktlar, tabiat bilan jamiyatning o'zaro ta'sir masalalari, ta'lim va aqliy faoliyat usullari)ni qamrab olgan bo'lishi lozim.

3. Ta'limning turli bilim manbalari va vositalari - turli mazmundagi kartalar, darsliklar, raqamli ma'lumotlar, qo'shimcha adabiyotlar (gazeta va jurnallar, ilmiy-ommabop adabiyotlar) bilan birga, rasmlar, fotosuratlar, kompyuter va ekranli qo'llanmalar, foydali qazilma namunalari, gerbariylar, statistik ma'lumotlar va boshqalar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlashi lozim.


4. O'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishi, mustaqil va ijodiy fikrlashiga imkon berishi lozim.

5. O'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini orttirishi lozim. O'quvchilarning mustaqil ishlari mukammal o'ylab tuzilgan topshiriqlar tizimi asosida va muntazam olib borilgandagina yuqori samara beradi. Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;

2. Mustaqil ravishda o‘z bilimlarini yanada oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi;
3. Mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;
4. Mustaqil ishlarni tashkil etishga uslubik rahbarlik qilish.

*1-sxema. Mustaqil ishlarga qo‘yiladigan uslubiy talablar*



**1.2 Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari.**

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” o‘quvchilardan mustaqil fikrlashni, eshitgan o‘quv axborotlarini ijodiy umumlashtirishni, muhim qismlarini ajrata bilishni, konspektlar yozishni, adabiyotlar ustida mustaqil bilim olishni talab etadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida mustaqil o‘rganish keng targ‘ib qilinadi va bilim olishning bunday usuli ish jarayoni va kasbiy mahoratning muntazam ravishda takomillashuviga olib keladi.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan hozirgi davrda geografiya darslariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirishdan iborat. Faollik ta'limda avvalo bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida namoyon bo'lishi lozim. Bu esa o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishini yaxshilaydi.

O'quvchilar faoliyatini faollashtirish ularning mustaqil ishlariga alohida e'tibor berishni talab etadi. Chunki o'quvchilar bilimlarni puxta o'zlashtirishining asosiy vositasi mustaqil ishlardir. Geografiya darsida o'quvchilar faoliyatini faollashtirish ular oldiga aniq ta'lim vazifalarini qo'yishdan boshlanadi.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari va ular asosida ishlab chiqilgan takomillashtirilgan maktab geografiya dasturlari o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ta'limning texnik vositalaridan bilim manbai tarzida foydalanish va o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni nazarda tutadi.

Geografiya ta'limining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o'rganish va olgan bilimlarini amalda tadbiq eta olishga o'rgatishdan iboratdir.

Psixolog va pedagoglarning ta'kidlashlaricha, o'quvchilar bilim olishda mustaqillikka o'rgatilmasa, ularning olgan bilimlari yuzaki bo'ladi. B.P.Yesipov, M.A.Danilov, L.V.Zankov va G.S.Asanovalarning tadqiqotlarida o'quvchilarning mustaqil ishlari ta'limning samarali vositasi ekanligi ta'kidlangan.

O'qituvchi va uslubiyotchilar o'rtasida mustaqil ishlarning mazmuni haqida yagona fikr yo'q. Ayrim uslubiyotchilar va maktab o'qituvchilari "mustaqil ish" bilan "amaliy ish" tushunchalarini bir xil tasavvur etadilar. Ko'pchilik geograf-uslubiyotchilarning fikricha, o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari bir-biridan tafovut qiladi.

Amaliy ishlar – tabiat hodisalarini kuzatish, kuzatish asboblari bilan ishlash, tajriba o'tkazish, joyda plan olish, tepalik balandligini o'lchash, daryoning eni, chuqurligi va oqim tezligini o'lchash kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Bu ishlar

o'quvchilarni geografiya fani tadqiqot uslublari bilan tanishtirish va ularda tegishli ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga qaratilgan.

Mustaqil ishlar deb nimaga aytiladi? – degan savolning vujudga kelishi tabiiy.

Ayrim uslubiyotchilar o'qituvchining bevosita yordamisiz sodir bo'ladigan o'quvchilarning faoliyati, ya'ni o'quvchining o'qishi, tinglashi, biror masalani hal etishi, savolga javob berishini mustaqil ish deb hisoblaydilar. Buni mustaqil ishlarga berilgan to'liq ta'rif deb bo'lmaydi.

Ko'pchilik geograf-uslubiyotchilar o'qituvchining topshirig'i asosida, muayyan ajratilgan vaqt mobaynida bajariladigan aqliy faoliyat talab etadigan ishlarni mustaqil ish deb biladilar.

Yuqoridagi fikrlarni nazarda tutib, bilim va ko'nikmalarni ijodiy tadbiiq etib, yangi bilimlarni egallashga harakat qilinadigan ta'limni mustaqil ish deb tushunish mumkin.

Rus uslubiyotchi-geografi M.K.Kovalevskaya fikricha, "o'quvchilar yangi fakt, hodisalarni aniqlash uchun o'z bilim va tajribalarini tadbiiq etsalar, ilgari ularga ma'lum bo'lmagan sabab va oqibatlarini izlasalar yoki masalani hal etishning yangi usullarini topsalar, ya'ni bilim va ko'nikmalarda yangi natijalarga erishsalar, bunday ishni mustaqil ishlar deyish mumkin".

Amaliy ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad – nazariy bilimlarni amalda tadbiiq etish, o'rganilgan materialni chuqurroq, puxtarroq tushunib yetish, amaliy ko'nikma va malakalarni egallashda o'quvchilarga yordam berishdan iborat. Amaliy ishlar ommaviy tarzda ham, o'qituvchining ishtirokida ham bajarilishi mumkin. SHuning uchun hamma amaliy ishlarni mustaqil ish deb bo'lmaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv faoliyati tushunilib, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi. Mustaqil ishlar o'quvchilar faoliyatini amaliy ishlarga nisbatan ko'proq qamrab olishi lozim.

Geografiya ta'limidagi mustaqil ishlar – yangi materialni o'rganish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kartografik va ko'rsatmali qo'llanmalar,

kolleksiya va gerbariyalar, raqamli va statistik ma'lumotlar bilan ishlash, o'quv ma'ruzalari tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar mustaqil ish bajarayotganlarida biron-bir masalani hal etish uchun ilgari olgan bilim va ko'nikmalariga tayanadilar.

Mustaqil ish dars jarayonining barcha bosqichlarida – yangi bilim, ma'lumotlarni o'rganishda, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda, o'rganilgan yangi materialni takrorlash va mustahkamlashda tadbiiq etilishi mumkin.

Ta'lim jarayonida bajariladigan mustaqil ishlar o'qituvchining rahbarlik rolini susaytirmaydi, balki undan yanada ko'proq mahorat va mehnat talab qiladi. SHuningdek, ta'limning xilma-xil uslub, usul va vositalarini tadbiiq etish, o'quvchilarning tayyorgarliklarini hisobga olib, yangi topshiriqlar ishlab chiqish, o'quvchilarda mustaqillik, faollik va tashabbuskorlik kabi xususiyatlarni rivojlantirishni taqozo etadi.

O'quvchilar mustaqil ish topshiriqlarini yaxshi tushunib etgan, bajariladigan ish bosqichlarini bilib olgan, ularni qaysi usullar bilan bajarishni va ma'lumotlarni qayerdan olishni, ish natijasini tasavvur etgan taqdirdagina belgilangan vazifalar muvaffaqiyat bilan bajarilishi mumkin. Mustaqil ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun o'quvchi nazariy bilim va ko'nikmalarni egallagan bo'lish bilan birga, bir qancha ish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi va uni amalda tadbiiq eta olishi lozim. Masalan, kartalar asosida O'zbekiston Respublikasi yoki uning biror tabiiy geografik o'lkasi iqlimiga tavsif berish uchun o'quvchi quyidagilarni bilishi talab etiladi:

- o'rtacha oylik havo haroratining nima ekanligini;
- geografik kartada o'rtacha oylik havo haroratining qanday tasvirlanishini;
- iqlimning geografik kenglik va rel'efga bog'liqlik xususiyatlarini;
- yog'ingarchilik miqdori;

- ko‘p esuvchi shamollar yo‘nalishi kabilarni kartadan aniqlay olishi, tabiiy va iqlim kartalarini solishtirib, tegishli xulosalar chiqara olishi lozim.

Yangi materialni o‘rganish jarayonidagi o‘quvchilarning mustaqil ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular kartadan biron-bir ob‘ektga geografik tavsif berish, ayrim huddular tabiiy sharoitini taqqoslash, darslik matni va illyustratsiyalarini mustaqil o‘rganish va tahlil qilish, kontur karta to‘ldirishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Mustaqil ishlarning yaxshi samara berishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish va masalalarni mustaqil bajarishga o‘rgatish uchun quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Kurs oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda u asosiy tushuncha va ko‘nikmalarni qamrab olishi, tabiat komponentlarining bir-biriga bog‘liqligini ochib berishi lozim.

2. Bilimlarning tarkibiy qismlari, ya’ni faktlar, umumiy va xususiy tushunchalar, geografik qonuniyatlar, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni qamrab olishi lozim.

3. Turli bilim manbalari - kartalar, darsliklar, raqamli materiallar va boshqalar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim.

4. O‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini, mustaqilligini va tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

5. O‘quvchilarning geografiya faniga bo‘lgan qiziqishini orttirishi lozim.

Xususiy-didaktik maqsadlarga bog‘liq ravishda to‘rtta mustaqil ish tipi ajratiladi. Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *birinchi tipi* – bu sirtidan qaraganda, faoliyatning algoritmi ma’lumotlari va vazifalari sharoitidan iborat. Ya’ni, dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida o‘quvchilarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir.

Mustaqil ishlar xususiy– didaktik maqsadining *ikkinchi tipida* o‘zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya’ni bilimlarning ikkinchi

bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi. Bu maqsadga idrok qilinadigan masalalarni yechish chog'ida o'quvchilardan tanlab olingan faktlarni tavsiflash asosida ob'ektlar va hodisalarni aniq bayon qilish yoki o'rganilayotgan ob'ekt va hodisalardagi o'zgarishlarning sababini asoslash hamda uni ifodalash orqali yetish mumkin. Ushbu ikkala holatda ham o'quvchilar avval egallagan, shakllangan bilimlar tizimini to'g'ri jalb qila olishi va faollashtira olishi asosida bajarishi lozim. O'quvchilarning bilish faoliyati avval o'zlashtirilgan o'quv axborotining mazmuni, tuzilmasini qayta ishlash, qisman qayta loyihalash va yangilashdan iborat bo'ladi. Bunday qayta loyihalash va yangilash tavsif qilinayotgan ob'ektni tahlil qilish, vazifani turli yo'llar bilan bajarish, ulardan eng to'g'ri yoki mantiqiy izchilligini topish kabi yechish usullarini tanlash zarurligini keltirib chiqaradi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi. O'quvchilardan ushbu g'oyaning rivojlantirib, muayyan sharoitga tadbiiq etish uslub va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi tipi o'quvchilarda uchinchi bosqich - tipik bo'lmagan vazifalarni bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iborat. Bu maqsadga o'quvchilardan o'rganilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlarning uchinchi tipini bajarishdagi bilish faoliyati umuman olganda, bilim, ko'nikma va malakalarni ko'chirishni amalga oshirish yo'li bilan avval o'zlashtirilgan va qolipga tushgan tajriba asosida yangi faoliyat tajribasini to'plash hamda namoyon qilishdan iborat bo'ladi. Bu tipdagi ishlar vazifasining mohiyati izlanish, yechimlar g'oyasini ifoda qilish, amalga oshirishdan iborat. Bu qolipga tushgan tajribalar doirasidan doimo chetga chiqadi va fikrlashning jonli jarayonida o'quvchilardan topshiriqlarni avval o'zlashtirilgan o'quv axborotlari,

ularga yangi nuqtai nazardan yondoshish (muayyan topshiriqlar talablari nuqtai nazaridan) asosida turlanadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi tipi ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir. Bunday ishlarni bajarishdagi o'quvchilar bilish faolligi shundan iboratki, bunda o'quvchilar muhokama qilinayotgan ob'ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar, munosabatlarni o'rnatadi. Bunda o'quvchi vazifalarni bajarishni har bir bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Maktab geografiya ta'limida mustaqil ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqilligini rivojlantirish, ularni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ayni vaqtda yoshlarni hayotga tayyorlashdan iborat. Demak, mustaqil ishni yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, egallangan bilim va tajribalarni takomillashtirish yo'li deyish mumkin. Mustaqil ishlar bir necha elementlardan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mustaqil ishlarni tashkil etganda, ularning bir-biri bilan aloqadorligini nazarda tutishni taqozo etadi.


Mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar, an'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilarga tayyor bilim berish amalda keng tarqalgan ta'lim tarzi bo'lib, o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Ta'limning bunday tarzi o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantira olmaydi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, "bunday bilim keraksiz yuk bo'lib qoladi".

O'quvchi qanday bilim olayotganini, qanday bilayotganini, bilish usullarini qanday egallayotganini tushunib etsa, uni mustaqil ta'lim olish deyish mumkin. Demak, geografiya ta'limidagi mustaqil ishlarning didaktik vazifasi – o'quv ishlarining o'ziga xos usullarini egallash, binobarin, fanning tadqiqot uslublarini egallashni ta'minlashdan iborat. Geografiya darsida mustaqil ish turli didaktik

maqsadlarni nazarda tutishi mumkin. Mustaqil ish asosan yangi materiallarni o'rganish jarayonida va mustahkamlashda, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etilishi kerak.

Mustaqil ishni tashkil etishda eng avvalo, oddiy narsaga ahamiyat berish lozim. Bunday qaraganda uni hamma biladi, lekin ko'pchilik uiga amal qilmaydi. SHuning uchun mustaqil ishni tashkil etitni oddiy elementar prinsiplarini o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to'laligicha qamrab oladi.

*2-sxema. Mustaqil ish elementlari.*




O'quvchilarning mustaqil ishlari ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarni hal etishga yordam berishi mumkin:

- o'quvchilarning ongliligi va o'zlashtirilgan bilimni sifatini oshirishga;
- o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda, ishlab chiqarishda tadbiq eta olishga;
- ularda dastur talab etgan o'quv ish usullariga (shu jumladan, bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga) oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga;

- o'quvchilarning bilish qobiliyatlari (kuzatuvchilik, sinchkovlik, mantiqiy tafakkur, ijodiy faollik, bilimlarni tadbiq etish)ni rivojlantirishga;
- aqliy, jismoniy mehnat madaniyatiga, mustaqil ishlashga, oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga odatlantirishga;
- o'quvchilarni kelgusida samarali va mustaqil hayotga tayyorlashga imkoniyatlar yaratadi.

**3-sxema. Mustaqil ishlarning ta'lim jarayonidagi vazifalari.**



### 1.3 Mustaqil ishlarning turlari.


Qo'yilgan muammo va vazifalar bo'yicha ma'lum yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerak bo'ladigan mustaqil fikrlash ko'nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlanib boradi.

Pedagogikaga oid ilmiy adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi **turlari** qayd etiladi. *Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar* tipik vazifalarni, turli

mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materiallarni o‘zlashtirishga omil bo‘lib xizmat qiladi, lekin o‘quvchilarning ijodiy faolligini o‘stirmaydi.

**Rekonstruktiv-variantiv mustaqil ishlar** nafaqt bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni jalb qilishni ko‘zda tutadi.

**4-sxema. Mustaqil ishlarning turlari.**



**Tadqiqiy mustaqil ishlarda** tadqiqot muammosini ko‘ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinishi rejasini ishlab chiqish va uni hal etishni ko‘zda tutiladi.

**Ijodiy tadqiqot ishlari.** Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo‘ladi. O‘qitishning hozirgi

jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikricha, muammoli vaziyat, kutilmagan, hayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi. O'qitish sharoitida insonning psixik, emotsional va xissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanishi uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. U bilishning maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilimlar va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Yangi bilimlar o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. O'quvchi o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalani hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va boshqalarni loyhalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

SHunday qilib, mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim uslubi bo'lib, unda o'quvchilarning mashg'ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash jarayonidagi individual faolligi oshadi.

Geografiya ta'limida mustaqil ishlar tizimini **mustaqil ish turlari** bo'yicha ishlab chiqish yaxshi samara beradi. Maktab geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlar tizimini quyidagi turlarga bo'lish mumkin (5-sxema).


Geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlarni maktabda o'qitiladigan geografiya kurslari – tabiatshunoslik, umumiy tabiiy geografiya boshlang'ich kursi, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, O'zbekiston tabiiy geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi bo'yicha ishlab chiqilishi mumkin. Bunda har bir geografiya kursidagi mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlar dasturda berilgan mavzular qamrab olinishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ishlarni bilim tarkibi (komponentlari) bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqiladi:

1. Umumiy tushunchalarni shakllantirish;

2. Xususiy tushunchalarni shakllantirish;
3. Geografik bilimlarni shakllantirish;
4. Geografik ko'nikmalarni shakllantirish;
5. Geografik faktlar bilan ishlashga o'rgatish;
6. Sabab-oqibat bog'lanishlarni aniqlashga o'rgatish.
7. Geografik qonuniyatlarni shakllantirish;
8. O'quv faoliyati (ish) usullarini shakllantirish.

**5-sxema. Geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ish turlari.**



Geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlar quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishi lozim:

1. Tayanch bilim va ko'nikmalarni tiklash;
2. O'rganilgan o'quv materillarini mustahkamlash;
3. Yangi bilim va ko'nikmalarni egallash;
4. Bilim va ko'nikmalarni tizimga solish.

Didaktikada o'quvchilarning mustaqil ishlarini tayyorgarlik nuqtai nazaridan asosan uch bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich: Mustaqil ishlashga tayyorlovchi dastlabki mustaqil ishlar. Ularni bajarish usullari va qoidalari sinfda o'rgatiladi. Ikkinchi bosqich: O'qituvchining bevosita rahbarligi ostida bajariladigan yarim mustaqil ishlar. Bunda har bir ishga qo'yiladigan muayyan

topshiriqlarni bajarishga o'qituvchi bevosita yordam beradi. Uchinchi bosqich: Haqiqiy mustaqil ishlar. bunda o'quvchilar mustaqil ishlarni o'qituvchi yordamisiz, mustaqil bajaradilar.

Geografiya ta'limida bilim manbalari bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- geografiya darsliklari va qo'shimcha adabiyotlar (ilmiy ommabop ktoblar, lug'at va spravochniklar) bilan ishlash;
- geografik atlas, kartalar va kontur kartalar bilan ishlash;
- ta'limning texnika vositalari (kompyuter, kinofilm) bilan ishlash;
- tarqatma didaktik materiallar (foydali qazilma namunalari, didaktik kartochkalar) bilan ishlash;
- vaqtli matbuot materiallari (gazeta, jurnal, internet ma'lumotlari) bilan ishlash;
- statistik ma'lumotlar va raqamli materiallar (jadval, diagrammalar) bilan ishlash;
- illyustratsiyalar bilan ishlash;
- tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish materiallarini ishlab chiqish.

Geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlarni yuqorida sanab o'tilgan turlaridan geografiya o'qituvchisi o'z imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'rganiladigan kursning mazmuni va o'quv-moddiy baza (ta'lim vositalari)ning mavjudligiga qarab foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Quyida maktab geografiya ta'limida mustaqil ishlarning ayrim turlarini bajarilishga to'xtalib o'tamiz. Tabiiy geografiya va regional kurslarda o'quvchilar quyidagi mustaqil ishlarni bajarishlari mumkin:

1. Biron mavzuga doir o'quv kinoflmi ko'rsatilgach, ilgari egallangan bilim va tajribaga tayanib, belgilangan topshiriqlarga javob yozish.
2. O'rganilgan bilim mazmunini aks ettiruvchi misol va xulosalarni darslikdagi mavzu matnidan topish.

3. Darslik illyustratsiyasi, sxemalari va raqamli materiallarni tahlil qilib, berilgan topshiriqqa javob yozish.

4. Darslikda berilgan mavzu matniga reja tuzish va reja asosida konspekt yozish.

5. Atlasdagi kartalardan muhim ob'ektlarni belgilash.

6. Atlasda berilgan topshiriq yuzasidan kartalarni qiyoslab xulosa chiqarish va daftarga yozish.

7. Ta'lim vositalari bilan mustaqil ishlash (bunda o'quvchilar ta'lim vositalarini sinchiklab ko'rib chiqadilar, topshiriqlarga javob beradilar va mavzu yuzasidan kerakli xulosalarni chiqaradilar).

8. Tabiat hodisalarini kuzatish. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqqa asosan o'quvchilar tabiat hodisalarini kuzatadilar. Kuzatish natijalarini maxsus tutilgan daftarga yozib boradilar. Kuzatuv vaqti tugagach, o'quvchilar to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilib, natijalarini ishlab chiqadilar, tegishli xulosalar chiqaradilar.

9. Ilgari egallangan geografik bilimlar asosida ob'ekt va hodisalarni mustaqil qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish. Masalan, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida Evrosiyo reliefi va iqlimi haqida egallangan bilimlarga tayanib, o'quvchilar G'arbiy Evropa bilan SHarqiy Osiyo daryolarining xususiyatlarini, rejimini mustaqil o'rganishlari mumkin.

10. Geografik kartalar bilan olib boriladigan mustaqil ishlar hajmi kengaytiriladi, o'quvchilar foydalanadigan kartalar miqdori ko'paytiriladi. Tematik kartalar o'zaro qiyoslanib, xulosalar chiqariladi.

11. Kontur kartalarga tushirilgan ob'ekt va hodisalarning xususiyatlarini so'zlab berish talab etiladi.

Geografiya darslarida bajariladigan barcha mustaqil ishlarni maqsadiga ko'ra asosan uch guruhga bo'lish mumkin:


I. O'quvchilar egallagan ko'nikmalarni amalda tadbiq etadigan va rivojlantiradigan mustaqil ishlar. Masalan, adabiyotlar bilan ishlash, hodisalarning

asosiy belgilarini va geografik ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, nazariy bilimlarni o'quvchilarga hali ma'lum bo'lmagan yangi fakt va hodislarga tadbiq etish.

II. O'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonida ularning faolligini oshiruvchi mustaqil ishlar. Masalan, aqliy harakat usullaridan foydalanuvchi mashqlar.

III. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantiruvchi va bu jarayonda yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi ishlar.

**6-sxema. Bilim komponentlari bo'yicha mustaqil ishlarning turlari.**



Geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlarni bilim komponentlari bo'yicha quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Umumiy tushunchalarni shakllantiruvchi mustaqil ishlar;
- Geografik ko'nikmalarni shakllantiruvchi mustaqil ishlar;
- Xususiy tushunchalarni shakllantiruvchi mustaqil ishlar;
- Sabab-oqibat, bog'lanishlarni aniqlashga o'rgatuvchi mustaqil ishlar;
- Geografik bilimlarni shakllantiruvchi mustaqil ishlar;
- O'quv faoliyati usullarini shakllantiruvchi mustaqil ishlar;

- Geografik qonuniyatlarni shakllantiruvchi mustaqil ishlar;
- Geografik faktlar bilan ishlashga o'rgatuvchi mustaqil ishlar (6-sxema).

Maktab geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlar oddiydan asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Mustaqil ishlarining bu tarzda murakkablashtirib borilishini M.K.Kovalevskaya quyidagi bosqichlarga ajratadi:

I. Yangi fakt va hodisalarni izlashni talab etuvchi nisbatan engil topshiriqlar.

II. Geografik hodisalarning sabab-oqibatlarini belgilash va tushuntirishni talab qiluvchi nisbatan murakkabroq topshiriqlar.

III. Fakt va hodislarni umumlashtirishni talab etuvchi nazariy yo'nalishdagi muhim va nisbatan qiyin topshiriqlar.

***1-jadval. Maktab geografiya ta'limida mustaqil ishlarni tashkil etish bosqichlari.***

<b><i>I-bosqich</i></b>	<b><i>II-bosqich</i></b>	<b><i>III-bosqich</i></b>
<b>Yangi fakt va hodisalarni izlashni talab etuvchi nisbatan engil topshiriqlar.</b>	<b>Geografik hodisalarning sabab-oqibatlarini belgilash va tushuntirishni talab qiluvchi nisbatan murakkabroq topshiriqlar</b>	<b>Fakt va hodislarni umumlashtirishni talab etuvchi nazariy yo'nalishdagi muhim va nisbatan qiyin topshiriqlar</b>
Bular "qayerda", "qay vaqtda", "qancha" degan savollarga javob beruvchi topshiriqlarni o'z ichiga oladi.	Topshiriqlarni berishda "tushuntiring", "isbotlang" degan talablar va "nima uchun", "qanday qilib", "nega" kabi savollar qo'yiladi	Bunday topshirilar umumiy tushuncha, qonuniyatlar va ish usullarini tushuntirishni nazarda tutadi.
<b>Masalan,</b> "O'zbekistonning qayerlarida neft konlari borligini aniqlang", "O'zbekistonning qayerlarida yirik GESlar va GRESlar qurilgan?"	<b>Masalan,</b> "Nima uchun dengizda tashilgan yuk arzon tushadi?" yoki "O'zbekistonning iqlim sharoiti dehqonlikning ixtisoslashuviga qanday ta'sir etishini tushuntiring" va boshqalar.	<b>Masalan,</b> (Tabiiy resurslarga xo'jalik nuqtai nazaridan baho berish deganda nimani tushunasiz? Turli xo'jalik tarmoqlarini baholovchi kriteriyalar nimadan iborat?" yoki "Qanday omillar hududiy ixtisoslanishni belgilaydi?"

AQSH pedagogi Benjamin Blum tomonidan 1956 yil e'lon qilingan «Taksonomiya tseley obucheniya» asarida mustaqil bilim olish mezonlari ishlab chiqilgan. Har bir bosqich avvalgisiga qaraganda murakkab, hamda har bir bosqich

o‘zidan avvalgi bosqichlarni ham o‘z ichiga oladi. YA’ni har bir yangi pog‘onaga ko‘tarilar ekan, albatta avvalgi bosqichni ham takrorlash lozim bo‘ladi. Ular quyidagilar:

1. Olingan bilimni yodda saqlash. Bu esda olish qobiliyati yoki darsda o‘tilgan, o‘qiganlarni kerak bo‘lganda eslab, yodga tushirish qobiliyati bo‘lib, o‘tilgan tushuncha, tendensiya, mezonlar, umumlashtirilgan xulosa kabilarni eslab yodga solish ko‘zda tutiladi. U darsning dastlabki maqsadidir.

2. Tushunish. Bu o‘quvchilarni darsda eshitganlari, o‘qiganlari, ko‘rganlarini ma’nosini tushunib, ularni o‘zgarishi nimaga olib kelishini ko‘z o‘ngiga keltira olish qobiliyati. Tushunish uchun avval olingan bilimni yodda saqlash kerak.

3. Olingan bilimni qo‘llash. G‘oya, prinsip, konsepsiyalarni yangi vaziyatlarda qo‘llash iqtidori. Unda eng avvalo bilganlarini yodga tushirib uni yangi vaziyatda taqqoslash kerak.

4. Tahlil qilish. Voqea va hodisalarni bo‘laklarga bo‘lish, ular o‘rtasida mantiqiy aloqalarni aniqlashni talab etadi. Tahlil qilish (analiz) iqtisodiy voqelik, jarayonlarni u yoki bu shaklda induktsiya uslubini qo‘llashga tayanadi. Tahlil qilish uchun esa olgan bilimni yodga tushirish, muammoga tushunish, uni qo‘llay bilish kerak.

5. Sintez qilish. Bilim olish va fikrlashning bu bosqichida alohida tarkibiy qismlar va turli manbalardan olingan axborotni bir butun yagona tizimg keltirish qobiliyati. Buning uchun yodga tushirish, masalaga tushunish, uni qo‘llay bilish, tahlil qila bilish kerak.

6. Baholash. Bu bilishning yuqori bosqichi bo‘lib, o‘quvchining qo‘yilgan masalaga o‘z fikri, nuqtai nazarini bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Bunda u yoki bu masala, muammoni yechishning turli yo‘llari shakllanadi. Uning qaysi biri to‘g‘ri, samarali, maqsadga muvofiqligi baholanadi. Odatda baholash mezonlaridan foydalaniladi. Baho berish uchun avvalo olgan bilimni yodga tushirish, masalani tushunish, yangi vaziyatda bilganlarini qo‘llay bilish, tahlil qilish, sintez qilishni bilish kerak.

## **II-BOB. MAKTAB GEOGRAFIYA TA'LIMIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI.**

### **2.1 Maktab geografiya ta'limida mustaqil ishlarni tashkil etishning usul va vositalari.**

Mustaqil ishlarni o'tkazishning uslub va usullari, vositalari o'quv materialini, topshiriqlarni bajarilish maqsadiga qarab, turli xil bo'ladi. Masalan, tayanch bilimlarni qayta tiklash (reproduktiv)ga oid topshiriqlar ko'pincha yangi materialni o'rganish oldidan bajariladi. Bunday topshiriqlar geografiya darsliklarida, deyarli har bir mavzu (paragraf) oldida berib boriladi. Odatda maktab geografiya darslarida bu topshiriqlar dars jarayonida bajarilmaydi va o'quvchilarga uy vazifasiga qo'shimcha tarzda beriladi. Aslida bu topshiriqlarni bajarish muhim bo'lib, yangi materialni o'rganish jarayonida tayanch bilimlarni qayta tiklash orqali ilgari egallangan bilimlar yangi o'rganilayotgan bilimlar bilan uzviy bog'lanib borishi lozim.

Maktab geografiya kurslarida o'quvchilar juda ko'p mavzuli (tematik) kartalar bilan ishlaydilar. Kartalar bilan ishlash va ularni qiyoslashda kartografik tushuncha (geografik kenglik va geografik uzunlik, qutbiy doiralar, tropik doiralar, ekvator va boshqalar), ko'nikmalar (geografik koordinatalarni aniqlash, kartada orientlash, berilgan nuqtalar oralig'ini aniqlash, kartada masofani o'lchash va boshqalar)ni o'quvchilar xotirasida tiklash talab etiladi. O'quvchilarni tematik kartalarni o'qiy olishga, kartalardagi geografik ob'ekt va hodisalarni tahlil qila olishga, kartadan bilim manbai sifatida mustaqil foydalana olishga o'rgatib borish lozim.

Ob'ekt va hodisalarga karta asosida tavsif berish uchun o'quvchilar bilan dastlab uning rejasini ko'rib chiqish va reja (plan) punktlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma (yo'l-yo'riqlar) berish talab etiladi. Masalan, ob'ektning geografik o'rnini belgilash uchun uni kartadan topish, ekvator va bosh meridianga nisbatan o'rnini belgilash va materikning qaysi qismida

joylashganligini aniqlash kerak. Tog' tizmalari va daryolarning yo'nalishlarini kartografik to'rlar, uzunligini esa masshtab yordamida aniqlanadi. Joyning balandligi kartadagi balandlik shkalasi yordamida, havo haroratlari (o'rtacha oylik harorat, maksimal harorat, minimal harorat), yog'inlar miqdori va ularning mavsumlar bo'yicha taqsimlanishi iqlim kartalaridan belgilanadi. O'quvchilarda ushbu ko'nikmalarni hosil qilish orqali mustaqil ishlarni tashkil etishga zamin yaratiladi.

Yuqoridagi ko'rsatmalar va tayyorgarliklardan so'ng o'quv ish usullarini o'rganib olgach, o'quvchilar mustaqil ishni bajarishga kirishishlari mumkin. Hozirgi texnika va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotga bir vaqtda Geografiya ta'limida mustaqil ishlarni tashkil etish vositalari ham takomillashib, o'zgarib bormoqda (7-sxema)

Geografiya ta'limi jarayonida mustaqil ishlar asosan yangi materialni o'rganishda va o'tilgan mavzuni mustahkamlashda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladi. Dars jarayonida o'qituvchi rahbarligida yangi materialning muayyan qismini ham o'quvchilar mustaqil o'rganishlari ham mumkin.

Yangi materialni o'rganish jarayonidagi o'quvchilarning mustaqil ishlarini ikki xil yo'l bilan olib boriladi:


1. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib beradi, o'quvchilar esa ayni vaqtda o'qituvchini tinglash bilan birga muayyan mustaqil ish bajaradilar. Masalan, bayon etilayotgan yangi ma'lumotlar asosida konspekt olishlari yoki o'rganilayotgan geografik ob'ekt va hodisalarni kontur kartaga tushirib borishlari mumkin.

2. O'qituvchi mustaqil ish uchun o'quvchilarga topshiriqlar beradi, so'ngra yangi materialni tushuntiradi. Mavzuni tushunib olgach, o'quvchilar berilgan mustaqil ishni bajaradilar.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ishlar katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mustaqil ish o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o'rganilgan masalani chuqurroq o'ylashga, uning eng muhim qismini izlashga, yakun yasab,

xulosalar chiqarishga imkon beradi. Pedagog va psixologlarning fikricha, mustaqil ishlarsiz ongli va mustahkam bilim berish, tegishli ko‘nikma va malakalarni hosil qilish hamda mustaqil bilim olishni ta‘minlab bo‘lmaydi.

*7-sxema. \_ Maktab geografiya ta‘limida mustaqil ishlarni tashkil etish vositalari.*



Jamiyat taraqqiyoti, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda, maktabda egallangan bilimlar ko‘p o‘tmay eskirib qolishi hech gap emas. Binobarin, mehnat faoliyati davomida o‘z bilimlarini muttasil to‘ldirib, boyitib borish taqozo etiladi. Bunga muttasil ravishda o‘z bilimlarini to‘ldirib, boyitib borish, o‘z ustida mustaqil ishlash bilangina erishi mumkin.

Sinab o‘tilgan o‘quv tarbiya shakllarining hech biri universal emas. Biri ikkinchisini o‘rnini bosa olmaydi. Ularning har birini o‘z o‘rni bor, o‘ziga xos

ahamiyatga ega. SHu bilan birga ular bir – biriga bog‘liq, biri ikkinchisini mantiqiy ketma – ketligini taqozo etadi.

Mustaqil ishlar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida turli didaktik masalalarni hal etishda, nazariy bilimlarni shakllantirishda, geografik qonuniyatlarni aniqlashda, bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda amalda tadbiiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishlarning samarasi o‘quvchilarning tayyorgarligiga, o‘qituvchining ijodiy faoliyati, pedagogik mahorati, tajribasi va bilim darajasiga bog‘liq.

## **2.2.Maktab geografiya kurslari bo‘yicha ayrim mavzularni o‘tishda mustaqil ishlarni tashkil etish usullari.**

Uzoq yillik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktab geografiya kurslari materiallarini o‘rganish jarayonida bajariladigan mustaqil ishlar o‘quvchilarda geografik qonuniyatlarni, yangi tushuncha, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, mustaqil bilim olishga oid malakalarni takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Mustaqil ish ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarida, yangi materiallarni o‘rganishda va mustahkamlashda, takrorlashda, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tekshirishda, shuningdek, ekskursiya va boshqa sinfdan tashqari ishlarda tashkil etilishi mumkin. Maktab geografiya kurslaridagi mustaqil ishlar quyi sinflardan Yuqori sinflarga tomon asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

Maktabda geografiya kurslarining o‘qitilishi V sinfdan boshlanadi. V sinfdan VII sinfga qadar o‘quvchilarda maktab tabiiy geografiya kurslari mazmunini tashkil etuvchi umumiy va regional tushunchalar, ko‘nikma va malakalar tizimi tarkib topishi lozim.

Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi tabiatshunoslik kursidan olingan bilimlarni kengaytiradi. Bu kursda umumiy yer bilimiga oid ma‘lumotlar beriladi, o‘quvchilar tabiat komponentlari o‘rtasidagi aloqalarni tushunib oladilar. Bu esa navbatdagi geografiya kurslarini o‘rganish uchun zamin yaratadi. CHunki o‘quvchilar “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”, “O‘rta Osiyo tabiiy

geografiyasi”, “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kurslarida o‘rganiladigan ma’lumotlarni ongli o‘zlashtirilishi uchun zarur bo‘lgan atama va nomlar, geografik tushunchalar, tabiatda Yuz beradigan hodisa va jarayonlar bilan aynan tabiiy geografiya boshlang‘ich kursida tanishadilar.

Bu kursda o‘quvchilarga o‘z yashab turgan joyining geografik xususiyatlari, globus va kartalarda Yer sharining tasvirlanishi to‘g‘risida, jahon aholisi, dunyo siyosiy kartasida O‘zbekiston va ayrim davlatlarning tutgan o‘rni to‘g‘risida dastlabki kartografik tasavvurlar ham beriladi. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursida o‘quvchilar tevarak-atrofdagi landshaft, narsa va hodisalarning mohiyatini aniqlaydilar, tabiatda ro‘y beradigan hodisa va qonuniyatlarni o‘rganadilar.

Maktab geografiya kurslarini mavjud o‘lka materiallari asosida o‘rganilishi va geografiya faniga hissa qo‘shgan vatandosh geograflar faoliyati bilan tanishish o‘quvchilarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, o‘quvchilarning boshqa o‘quv fanlarini ongli ravishda o‘rganishga tayyorlashda ham katta rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich kursning ushbu vazifalarini samarali amalga oshirilishida mustaqil ishlarning o‘rni beqiyosdir. Bu kursni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tabiatdagi ayrim hodisa va jarayonlarni mustaqil kuzatishni boshlaydilar. Kuzatish o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, egallangan bilimlarni aniq va mustahkam bo‘lishiga yordam beradi. Muntazam kuzatish natijasida o‘quvchilar tabiatdagi ayrim hodisa va jarayonlar haqida mustaqil xulosa chiqarishga o‘rganadilar.

Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursida umumiy tushunchalar asosiy o‘rinni egallaydi. Umumiy tushunchadan predmet va hodisalarning asosiy qismi, masalan, yer yuzasining turli shakllari, daryo, ariq, yer osti suvlari, nurash, atmosfera hodisalari kabilar maktab atrofidagi tabiatda uchraydi. Geografiya asoslarini o‘rganishda eng zarur astronomik, meteorologik, geomorfologik, gidrologik, fenologik va majmuaviy kuzatishlarga katta e‘tibor qaratilishi lozim. Mazkur

kursda o‘quvchilar tabiat ob‘ektlari va hodisalarini kuzatishga oid muayyan amaliy ko‘nikma va malakalarni egallaydilar.

Quyoshning chiqishi va botishi, Yulduzlar, sayyoralar, gorizontga nisbatan Quyosh balandligini o‘zgarishi, Oy fazalarining o‘zgarishi kabi kuzatishlarni astronomik kuzatishlar geografik qonuniyatlarning tarkib topishida katta ahamiyatga ega. CHunonchi, Quyoshning gorizontdan balandligini mustaqil kuzatishda quyidagilarga e‘tibor qaratilishi o‘quvchilarga tushuntiriladi:

1. Quyoshning ko‘rinma harakati Erning Quyosh atrofidagi yillik va sutkalik harakati oqibati ekanligi;
2. Quyoshning tush vaqtidagi balandligi yil davomida o‘zgarib turishi;
3. Quyoshning gorizontdan balandligiga bog‘liq holda havo haroratining yil davomida o‘zgarib borishi kabi tushuncha va bilimlarning shakllanib borishiga imkon beradi.

Meteorologik kuzatishlarda ob-havoni kuzatish alohida o‘rin egallaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning ob-havoni kuzatishni tashkil etish va kuzatish usullari bilan o‘quv yili boshida maxsus darsda tanishtiradi. Ob-havoni kuzatish va uni ta’riflash meteorologik asboblardan ishlatish ko‘nikmalarini hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Bunday kuzatish o‘quvchilarning atmosfera hodisalarini haqidagi tasavvurlarini va ob-havo haqidagi bilimlarini aniqlash vositalaridan biridir.

Quyida Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursidagi ayrim mavzular bo‘yicha mustaqil ish topshiriqlarini ko‘rib chiqamiz.

### **V-sinf. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi.**

#### **Kirish. Geografiya nimani o‘rganadi? (1-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari**

**1-Topshiriq.** Ob-havoning o‘zgarishini mustaqil kuzatib boring. Buning uchun “2015 yil ob-havoni kuzatish daftari”ni yurgizing. Daftarning 1-betiga darsligingizni 7-betidagi “Ob-havo hodisalarini shartli belgilari”ni chizib oling. Darslikda berilgan ob-havo ma’lumotlari jadvalini har kuni to‘ldirib boring.

**Izoh:** Har oyning oxirida kuzatish natijalari ishlab chiqiladi. O‘quvchilarni yanada murakkabroq kuzatishga tayyorlash maqsadida, o‘qituvchi “Oyning qaysi

kunida havo harorati eng past bo‘ldi? SHamol ko‘proq qaysi tomonga esdi? Bulutli va bulutsiz kunlarning nisbati qanday? YOg‘inning qaysi turlari yog‘di?” kabi savollarni berib borishi maqsadga muvofiq.

**3-jadval. Ob-havo ma'lumotlarini kuzatish jadvali**

**2015 yil sentyabr oyi uchun.**

Kun sana	soat	Havo harorati °S		Havo bosimi	shamol		Bulutlilik	Bulut turi	YOg‘in turi	Tabiatdagi boshqa hodisalar
		Kuzatilgan	o‘rtacha		Yo‘nalishi	kuchi				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

**2-Topshiriq.** O‘simlik va hayvonlarning fenologik (mavsumiy) o‘zgarishlarini mustaqil kuzating. Kuzatish natijalarini kuzatish olib borilgan sana bilan birgalikda quyidagi jadvalga yozib boring.

**Izoh:** Tabiatga ekskursiya uyushtirilganda, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida, maktab o‘quv-tajriba maydonida, geografiya maydonchasida fenologik kuzatishlar olib boriish mumkin. Bu kuzatishlar ob-havoni kuzatish bilan bevosita bog‘liq.

**4-jadval. Fenologik kuzatish jadvali.**

<i>Nº</i>	<i>Kuzatiladigan hodisalar</i>	<i>Oy va kun</i>	<i>kuzatuvchi</i>	<i>Izoh</i>
1	Sutkalik harorat 0 <sup>0</sup> li dastlabki kun			
2	Qorning erib tugashi			
3	Maynaning birinchi sayrashi			Bahorning boshlanishi
4	Boychechak ochilishi			
5	Laylak kelishi			
6	Musichaning in qurishi			
7	O‘rik gullashi			
8	Tolning barg chiqarishi			Kun va tunning baravarlashuvi
9	Bulbulning dastlabki sayrashi			
10	CHumolilarning indan chiqishi			Daryo suvining ko‘payishi
11	Olma gullashi			
12	Qaldirg‘ochning kelishi			
13	Dastlabki momaqaldiroq			

14	Atirgul ochilishi			yoʻz boshlanishi
15	Qulupnay pishigʻi			

Jonli tabiatning mavsumiy rivojlanish qonuniyatlarini mustaqil kuzatish boʻyicha oʻquvchilar yuqoridagi mustaqil ishni yil davomida bajarib borishlari lozim.

**V-sinf. Tabiiy geografiya boshlangʻich kursi.**  
**Yoʻnalish azimuti va masofani oʻlchash (4-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshirigʻi**

**1-Topshiriq.** Kompas yordamida azimutlarni belgilang, azimut boʻyicha obʻektlarni toping.

Ushbu topshiriqni oʻquvchilar tabiatga ekskursiya vaqtida bajarishlari ham mumkin. Ekskursiyada oʻquvchilar kompas yordamida azimutlarni belgilash va azimut boʻyicha obʻektlarni topishga oʻrgatiladi. Bunda oʻqituvchi ekskursiya vaqtidagi mustaqil ish uchun maxsus tayyorlangan tarqatma kartochkalardan foydalanishi mumkin. Ushbu mustaqil ishni oʻyin sifatida ham tashkil etilishi mumkin. Buning uchun sinf oʻquvchilari 6-8 kishidan iborat kichik guruhlariga boʻlinadi. Har bir guruh uchun bittadan maxsus tayyorlangan kartochkalar beriladi. Topshiriqni berishdan oldin oʻqituvchi oʻquvchilarga yoʻnalish azimuti va uning kompas yordamida qanday aniqlanishi toʻgʻrisida oʻtilgan mavzuni eslatadi. Azimutni belgilash va azimut boʻyicha obʻektlarni topish yoʻl-yoʻriqlarini misollar yordamida tushuntiradi. Ular quyidagicha boʻlishi mumkin:

***1-guruh uchun mustaqil ish topshirigʻi***

Shoxrux (oʻquvchi) A nuqtadan B nuqtaga 3600li azimut boʻyicha 100m yurdi. B nuqtadan C nuqtaga 900li azimut boʻyicha 100m yurdi. Kelgan nuqtani D deb belgiladi. U A nuqtaga borishi uchun qanday azimut boʻyicha qancha yurishi lozim?

***2-guruh uchun mustaqil ish topshirigʻi***

Yakka turgan daraxtdan 400 li azimut boʻyicha 200m, soʻngra 1800 li azimut boʻyicha 500m va 3300 li azimut boʻyicha 300m yuring.

***3-guruh uchun mustaqil ish topshirigʻi***

Yakka turgan daraxtdan 250 li azimut boʻyicha 100m, soʻngra 1800 li azimut boʻyicha 300m va 3300 li azimut boʻyicha 400m yuring.

**V-sinf. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi.**  
**Joyning topografik planini tuzish (6-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshirig'i**

**1-Topshiriq.** Mavzuni o'qing. Topografik plan tuzish usullari tasvirlangan rasmlarni izohlang.

**Izoh:** O'quvchilarda hosil qilinadigan dastlabki kartografik tushunchalar o'z joyi planini olishdan boshlanishi kerak. Dastlab o'qituvchi bilan birgalikda maktab atrofi planini olish o'rganiladi. So'ngra o'quvchilarda o'z shahri yoki qishlog'ining viloyat kartasida, keyin o'z viloyatini O'zbekiston Respublikasi kartasida, nihoyat mamlakatimizni jahon siyosiy kartasida qanday tasvirlangani haqida tasavvur hosil qilinadi. Bu mavzu o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi biroz qiyin bo'lgan murakkab mavzulardan biri bo'lib, mustaqil ishni yangi mavzuni mustahkamlash tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o'qituvchi dastlab topografik plan tuzishning qutbiy va azimutli usullari va ularning asosiy xususiyatlarini tushuntirib berishi, so'ngra o'quvchilarga yuqoridagi topshiriqlar mustaqil ish sifatida berilishi maqsadga muvofiqdir.

**V-sinf. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi.**  
**Joyning topografik planidan foydalanish (7-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari**

**1-Topshiriq.** Darslikning 21-betidagi joyning topografik planidan shamol tegirmoni Jilg'asuvga qurilgan to'g'onning qaysi tomonida joylashganligini aniqlang.

**Izoh:** dastlab joy planini o'rganish, so'ngra kartani o'rganishga o'tish kartani tushunishning to'g'ri yo'lidir. Avval maktab va maktab atrofida orientlash o'rganilgach, o'quvchilar plan olish (dastlab sinf va maktab planini, so'ngra kattaroq maydon planini chizish va shu asosda topografik plan bilan ishlash)ga o'rganadi. O'quvchilar plan haqidagi tasavvur va topografik belgilar asosida oddiy plan olishni bilganlaridan keyin topografik plan va topografik karta haqida muayyan tushunchaga ega bo'ladilar.

## **2-Topshiriq.** Topografik diktant yozish.

Topografik diktant yozma tekshirish usullaridan biri bo'lib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarning geografik tasavvurlarini kengaytiradi, ularni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi, ularning topografik karta belgilarini qay darajada bilib olganliklarini aniqlashga yordam beradi.

### **V-sinf. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi.**

#### **Quyosh, oy va yulduzlar (9-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshirig'i.**

**1-Topshiriq.** Oyning ko'rinma harakati va fazalarini kuzatish. Bunday kuzatishlarning eng yaxshisi Quyosh botgandan keyin, Oy gorizont ustida juda ham baland bo'lmay, ingichka o'roq shaklida ko'ringanda boshlash lozim. Oy ko'rinishini chizmada aks ettirish, uning Quyosh botgan nuqtasidan burchak uzoqligini tahminan aniqlash va bu kuzatishlarni kelgusi oqshomlari o'sha vaqtda takrorlash kerak. SHu yo'l bilan o'quvchilar Oy fazalarining asta-sekin o'zgarib borishini va uning osmondagi siljishini osmonning sutkalik aylanishiga qarama-qarshi yo'nalishda sodir bo'lishini tushunib oladilar.

### **V-sinf. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi.**

#### **Litosfera (13-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.**

**1-Topshiriq.** Darslikdagi "Yer po'stining tuzilishi" sxemasidan foydalanib, yer po'stini tashkil etuvchi qatlamlar ro'yxatini tuzing va yod oling.

**2-Topshiriq.** "Litosfera plitalarining harakat yo'nalishi va tezligi" kartasxemasini o'rganing. Aytingchi, quruqlikning qaysi qismida litosfera plitalarining harakat tezligi yuqori?

Litosfera mavzusi o'quvchilarni qiziqtiradigan, ayni vaqtda ancha murakkab mavzudir. Bu mavzuda maktab atrofida uchraydigan ob'ektlarni asli holatida o'rganish imkoniyati bor, biroq, maktab atrofida uchramaydigan predmet va hodisalarni modellar, rasm va fotosuratlar, videomateriallar, kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganishga to'g'ri keladi. Litosfera mavzusida

o‘quvchilar Erning ichki tuzilishi va uni tashkil etuvchi jinslar, vulkanlarning otilishi, zilzilalarning ro‘y berishi, er yuzasining shakllari (tog‘ va tekisliklar), ularning vujudga kelishi, ichki va tashqi kuchlar ta‘sirida tog‘ va tekisliklarning o‘zgarishi, er osti boyliklari va ularni muhofaza qilish usullari bilan tanishadilar.

### V-sinf. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi.

#### Yer toshqobig‘ining boyliklari (16-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.

**1-Topshiriq.** Darslikdagi mavzu matnidan foydalanib, quyidagi jadvalga yoqilg‘i, rudali va rudamas foydali qazilmalarga misollar yozing.

<i>Nº</i>	<i>Yoqilg‘i boyliklari</i>	<i>Rudali foydali qazilmalar</i>	<i>Rudamas foydali qazilmalar</i>
1	Toshko‘mir	Oltin	Osh tuzi
2			
3			
4			
5			

**Izoh:** Ushbu mavzu qiziqarli bo‘lib, uni o‘rganish orqali o‘quvchilar yer po‘stining turli xil foydali qazilmalarga boy ekanligini, respublikamiz hududida ularning tarqalishi va qazib olinadigan konlari bilan tanshadilar. Darsning ayrim qismlarida mustaqil ishlarni tashkil etish mavzuni ongli o‘zlashtirilishiga va tushunarli bo‘lishiga imkon yaratadi.

**2-Topshiriq.** Quyidagi jadvalga asosiy foydali qazilmalarning nomi, shartli belgisi va mamlakatimizning qaysi viloyatlarida tarqalganligini yozing.

<i>Nº</i>	<i>Foydali qazilmalar nomi</i>	<i>Kartadagi shartli belgisi</i>	<i>O‘zbekiston hududida tarqalishi(viloyat)</i>
1	Toshko‘mir		
2	Neft		
3	Tabiiy gaz		
4	Oltin		
5	Kumush		
6	Mis		
7	Osh tuzi		
8	Kaliy tuzi		
9	Granit		
10	Marmar		

## V-sinf. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi.

### Okean suvining xususiyatlari (19-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.

**1-Topshiriq.** Darslik matni va atlas kartalaridan foydalanib, okeanlar, ularning maydoni va eng chuqur botiqlarini jadvalini tuzing.

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Okeanlar nomi</i>	<i>Maydoni (mln km.kv hisobida)</i>	<i>Eng chuqur botig'i(nomi va chuqurligi, m. hisobida)</i>
1			
2			

**2-Topshiriq.** Atlas va kartalardan foydalanib, quyidagi jadvalga iliq va sovuq oqimlarga misollar yozing.

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Iliq oqimlar</i>	<i>Sovuq oqimlar</i>
1	Golfstrim	G'arbiy shamollar
2		
3		
4		
5		

Mustaqil ishlash jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash, axborotlarni bilimga aylantirish, bilimlarni esa barqaror ko'nikma va malakalarga aylantirish kabi o'qitishning asosiy vazifasi amalga oshiriladi. Pedagogikaga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning mustaqil ishlari o'quv faoliyatida ularning doimiy ehtiyojiga aylantirilishi lozim.

Geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlar muntazam olib borilsagina yaxshi natija berishi mumkin. SHunga muvofiq, tabiiy geografiya boshlang'ich kursida tashkil etilgan mustaqil ishlar tizimi Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi materiallarini o'rganishda ham davom ettirilishi maqsadga muvofiq.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi maktab geografiyasi tizimidagi dastlabki regional kursdir. Kursning asosiy vazifasi o'quvchilarga butun materik va materik doirasidagi tabiiy geografik viloyatlar va okeanlarning tabiiy

geografik xususiyatlari haqida tasavvur va xususiy tushunchalar tizimini, shuningdek, materiklarning aholisi va siyosiy kartasi haqida ayrim ma'lumotlar berishdan iborat. Kursni o'rganish orqali o'quvchilar har bir materik va okean tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, boshqa materik va okean tabiatidan farq qilishi, uning tabiiy sharoiti qanday sabablarga ko'ra tarkib topganligi kabilarni bilib oladilar. Bu kurs materiallarini o'rganish jarayonida tabiiy geografiya boshlang'ich kursida olingan bilimlarga tayaniladi, ilgari olingan umumiy tushunchalar aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursidagi mustaqil ishlar ko'proq turli mavzudagi kartalar bilan ishlashni taqozo etadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, kursda mustaqil ishlar uchun alohida darslar ajratilishi shart emas. Mustaqil ishlar har bir darsning tarkibiy qismiga aylantirilishi lozim.

Barcha materiklarning bir xil reja asosida o'rganilishi mustaqil ishlarni tashkil etishga qulaylik tug'diradi. Materikning geografik o'rnini o'rganishda chekka nuqtalarining koordinatalarini, materikning bo'yi va kengligini o'lchash ishlari imkon qadar mustaqil bajarilish lozim. Masalan, Afrikaning geografik o'rni hikoya, suhbat va boshqa usullar orqali o'rganilsa, Janubiy Amerikaning geografik o'rni o'quvchilar egallagan ko'nikma va malakalar asosida mustaqil o'rganilishi mumkin. SHuningdek, o'quvchilar iqlim kartalarini tahlil qilish natijasida har qaysi materikka yog'adigan yog'inlarning notekis taqsimlanishi, izotermalarning tarqalishi haqida mustaqil bilim olishlari va ularning sabalarini belgilashlari mumkin.

Quyida **Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursidagi** ayrim mavzularni o'rganishda bajarilishi mumkin bo'lgan mustaqil ish topshiriqlariga to'xtalib o'tamiz:

### **VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi**

#### **Gidrosfera. Uning tarkibiy qismlari (6-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari**

**1-Topshiriq.** Quyidagi jadvalga iqlim mintaqalari bo'yicha okean suvlari sho'rligi va haroratining o'zgarishini yozing. (to'ldirilishi)

№	Iqlim mintaqalari	Suvning sho'rligi, ‰
1	Okean suvining o'rtacha	35
2	sho'rligi	
3	Ekvator	36
4	Tropiklar	33

**2-Topshiriq.** Dunyo suv zahirasida okean suvlarining ulushini doiraviy diagrammasini chizing. Buning uchun quyidagi jadvaldan foydalaning.

	<i>Okean suvlari</i>	<i>Quruqlikdagi suvlar</i>
<i>Foizda</i>	<i>96,5</i>	<i>3,5</i>
<i>Gradusda</i>	<i>347,4</i>	<i>12,6</i>

### **VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi**

#### **Atmosfera. Erning iqlim mintaqalari (7-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.**

**1-Topshiriq.** Darslikdan mavzu matnini o'qing. Matndan foydalanib, atmosfera qatlamlari va ularning qalinligini quyidagi jadvalga yozing.

<i>Atmosfera qatlamlari</i>	<i>Qalinligi, km hisobida</i>

<i>№</i>	<i>Asosiy iqlim mintaqalari</i>	<i>Oraliq iqlim mintaqalari</i>

### **VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi**

#### **Dunyo okeani, uning qismlari va okean tubi reliefi (10-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari**

**1-Topshiriq.** Daftaringizga dunyo okeanini o'rgangan sayyoh va olimlar ro'yxatini tuzing.

**2-Topshiriq.** Darslikdagi "Dunyo okeani va uning qismlari" karta sxemasi ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi jadvalga okeanlar va ularning dengizlarini yozing.

<i>Atlantika okeani</i>	<i>Tinch okeani</i>	<i>Hind okeani</i>	<i>SHimoliy Muz okeani</i>
Boltiq	Bering	Arabiston	Norvegiya

## VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

### Afrika materigining geografik o‘rni va o‘rganish tarixi (19-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.

**1-Topshiriq.** Darslikdagi “Afrikaning tabiiy xaritasi”dan foydalanib, materikning chekka nuqtalarini aniqlang va koordinatalarini toping. Quyidagi jadvalga Afrika materigining asosiy xususiyatlarini yozing.

№	Asosiy xususiyatlari.	
1	Maydoni	
2	Eng chekka shimoliy nuqtasi	
3	Eng chekka janubiy nuqtasi	
4	Eng chekka g‘arbiy nuqtasi	
5	Eng chekka sharqiy nuqtasi	
6	SHimoldan janubga tomon (km)	
7	G‘arbdan sharqqa tomon (km)	
8	Eng sersuv daryosi	
9	Eng uzun daryosi (km)	
10	Eng baland cho‘qqisi (m)	
11	Eng past botig‘i (m)	

**2-Topshiriq.** Kartadan foydalanib, materik hududidan topilgan asosiy foydali qazilmalarni daftaringizga yozing.

№	Foydali qazilmalar nomi	Kartadagi shartli belgisi	Tarqalgan hududi
1	Neft		
2	Temir		
3	Marganets		
4	Oltin		
5	Mis		
6	Olmos		

## VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

### Avstraliyaning iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalari (29-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari

**1-Topshiriq.** Materikning tabiiy kartasi bilan iqlim kartasini qiyoslang. Avstraliyaning er usti tuzilishi iqlimining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatganligini aniqlang.

**2-Topshiriq.** Darslik va atlas kartalaridan foydalanib, Avstraliya materigida tarkib topgan tabiat zonlarini, ularning o'simlik va hayvonot dunyosini daftaringizga yozing.

### VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

#### Janubiy Amerika materigining geografik o'rni, o'rganish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Relifi (35-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.

**1-Topshiriq.** Quyidagi jadvalga Janubiy Amerika materigining asosiy xususiyatlarini yozing.

№	Asosiy xususiyatlari.	
1	Maydoni	
2	Eng chekka shimoliy nuqtasi	
3	Eng chekka janubiy nuqtasi	
4	Eng chekka g'arbiy nuqtasi	
5	Eng chekka sharqiy nuqtasi	
6	SHimoldan janubga tomon (km)	
7	G'arbdan sharqqa tomon (km)	
8	Eng sersuv daryosi	
9	Eng uzun daryosi (km)	
10	Eng baland cho'qqisi (m)	
11	Eng past botig'i (m)	

**2-Topshiriq.** Kartadan foydalanib, materik hududidan topilgan asosiy foydali qazilmalarni quyidagi jadvalga yozing. To'ldirilgan jadval ma'lumotlarini Afrika materigi hududidan topilgan foydali qazilmalar jadvaliga qiyoslang. Qanday o'xshashlik va farqlar bor?

№	Foydali qazilmalar nomi	Kartadagi shartli belgisi	Tarqalgan hududi
1	Neft		
2	Temir		
3	Marganets		
4	Oltin		
5	Mis		
6	Alyuminiy		
7	Uran		
8	Olmos		

## VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

### Yevrosiyo materigining tabiiy geografik o'rni, o'rganilish tarixi (45-dars)

#### mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari

**1-Topshiriq.** Evrosiyo tabiiy kartasidan foydalanib, materikdagi asosiy relef shakllarini quyidagi jadvalga tushiring.

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Tog' va tog' tizmalari</i>	<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Tekisliklar</i>
1		1	
2		2	
3		3	
4		4	
5		5	

**2-Topshiriq.** Atlas va kartalardan foydalanib, materik hududidagi yirik qo'riqxonalar ro'yxatini tuzing.

## VI-sinf. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

### Yevrosiyoning balandlik mintaqalari (54-dars) mavzusi uchun mustaqil

#### ish topshiriqlari.

**1-Topshiriq.** Darslikning 131-betidagi "Ximolay va Alp tog'laridagi balandlik mintaqalari" sxemasini tahlil qiling. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

A) Ximolay tog'laridagi balandlik mintaqalari

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Balanlik mintaqalari</i>	<i>Balandligi, m hisobida</i>	<i>Tuproqlari</i>	<i>O'simliklari</i>
1.	Subekvatorial o'rmonlar			
2	Subtropik doimiy yashil o'rmonlar			
3	Keng bargli o'rmonlar			
4	Igna bargli o'rmonlar			
5	Subalp o'tloqlari			
6	Qor chizig'i			
7	Jomolungma cho'qqisi			

## B) Alp tog‘laridagi balandlik mintaqalari

№	<i>Balandlik mintaqalari</i>	<i>Balandligi, m hisobida</i>	<i>Tuproqlari</i>	<i>O‘simliklari</i>
1.				
2				
3				
4				
5				

**2-Topshiriq.** Darslikning 131-betidagi “Ximolay va Alp tog‘laridagi balandlik mintaqalari” sxemasini o‘rganing va tahlil qiling. Tyanshan tog‘laridagi balandlik mintaqalarini chizmada tasvirlang.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda kartografik bilimlarni rivojlantirishdan iboratdir. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi bo‘yicha kartani o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishda karta bo‘ylab “sayohat”ning ahamiyati katta. Mustaqil ishlarni karta bo‘ylab “sayohat” marshrutlari tarzida tashkil etish o‘quvchilarning fanga va kartani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, bilimlarning karta bilan bog‘lanishini va ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Karta bo‘ylab «sayohat»larni tashkil etishda sinf o‘quvchilarini kichik guruhlariga ham bo‘lib olish mumkin. Bunda har bir kichik guruhga alohida «sayohat» marshruti belgilanadi. Masalan, **1-marshrut.** Dengiz yo‘li orqali London shahri (Buyuk Britaniya)dan Vladivostok (Rossiya) shahrigacha Evrosiyo materigining janubiy qirg‘oqlari bo‘ylab «sayohat» .

**2-marshrut.** Toshkent – Kobul - Dehli (avtomobil yo‘li) - Kalkutta (temir yo‘l) - Jakarta (dengiz yo‘li) bo‘ylab «sayohat» .

**3-marshrut.** Toshkent kengligi bo‘ylab Evrosiyoning g‘arbiy chekkasidan sharqiy chekkasigacha havo yo‘li orqali «sayohat». Sayohat yakuniga etgach, faol qatnashgan guruh va o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining materiallari mazmuni va o‘zlashtiriladigan ma’lumotlarning xususiyatiga ko‘ra tabiiy geografiya kurslaridan farq qiladi. Kursning vazifasi – o‘quvchilarga

respublikamiz aholisi, milliy iqtisodiyoti, uning rivojlanishi va joylanishi haqida tushuncha va bilimlar tizimini berishdan iborat. Egallangan aniq ma'lumotlar asosida o'quvchilarda O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni, ishlab chiqarish sohasining hududiy joylanishi, iqtisodiy rayonlashtirish va iqtisodiy rayonlar, hududiy ishlab chiqarish majmualari va shaharlar haqida umumiy iqtisodiy geografik tushunchalar shakllanadi. Ushbu kursni o'rganish orqali o'quvchilar iqtisodiy kartalar bilan tanishadilar. Ularda iqtisodiy kartalardagi shartli belgilarni tushunib etish, ob'ektlarning kartada joylanishini aniqlash, tabiiy va iqtisodiy kartalarni qiyoslash, turli mazmundagi kartalar asosida muayyan hududga iqtisodiy geografik ta'rif berish imkoniyatini vujudga keltiradi. Kursda nazarda tutilgan muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun iqtisodiy kartalar bilan butun kurs davomida mustaqil va amaliy ishlar olib borilishi lozim.

Kartalar asosida iqtisodiy geografik tavsif berish dastlab oddiy tarzda olib boriladi. Rayonlar va viloyatlarga tavsif berish uchun o'quvchilar majmui iqtisodiy kartalardan sanoat markazlarining joylanishi va sanoat tarmoqlari tarkibi, qishloq xo'jalik rayonlari, transport yo'llari kabilarni aniqlay olishlari talab etiladi.

Kursning birinchi bo'limi - O'zbekiston iqtisodiyotining umumgeografik ta'rifida iqtisodiy kartalar, darslikdagi karta-sxemalar, raqamli ma'lumotlar (jadvallar, diagramma va grafiklar) bilan ish olib boriladi. Ulardan o'quvchilarning mustaqil ishlarida foydalanish bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga imkon yaratadi.

Kursning ikkinchi bo'limi - O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlarini o'rganishda qiyosiy usuldan foydalanish qo'l keladi. Iqtisodiy rayonlarni bir-biri bilan qiyoslab o'rganish ilgari o'rganilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash imkoniyatini beradi, shuningdek, yangi mavzu puxta o'zlashtiriladi.

Dastlabki iqtisodiy rayonlarni o'rganishda, o'qituvchi, iqtisodiy geografik tavsif berish rejasi bilan o'quvchilarni tanishtiradi, ya'ni iqtisodiy geografik rayonlarni o'rganishda quyidagi rejadan foydalaniladi:

1. Iqtisodiy geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari.

3. Aholisi va mehnat resurslari.
4. Xo‘jalik tarmoqlari.
5. Asosiy sanoat markazlari va shaharlari.

Iqtisodiy rayonlar, ularning ayrim qismlari, viloyat va shaharlarni o‘rganishda o‘quvchilar yuqoridagi reja asosida mustaqil tavsif berib boradilar.

Mustaqil ishlar asta-sekin murakkablashtirilib, o‘quvchilardan tabiiy va iqtisodiy kartalarni solishtirishni, tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitlarni hisobga olgan holda, qishloq xo‘jaligi ixtisosini asoslashni talab etilishi mumkin.

Biz quyida O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining ayrim mavzulari bo‘yicha mustaqil ish topshiriqlarini ko‘rib chiqamiz.

### **VIII-sinf. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**

#### **O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi (7-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.**

**1-Topshiriq.** Darslikdagi “O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi” sxemasini o‘rganing va jadvalni to‘ldiring.

<i>O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti</i>			
<i>Moddiy ishlab chiqarish sohalari</i>		<i>Moddiy ne‘mat ishlab chiqarmaydigan sohalari</i>	

### **VIII-sinf. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**

#### **YOqilg‘i sanoati (7-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.**

**1-Topshiriq.** Darslikdagi 18-rasmdan foydalanib, O‘zbekiston yoqilg‘i balansida gazning salmog‘i necha barobar oshganligini aniqlang.

**2-Topshiriq.** Darslikdagi “Neft-gazli mintaqalar” karta-sxemasini o‘rganing. Karta-sxemadan foydalanib, O‘zbekistondagi neft-gazli mintaqalar hamda neft va gaz qazib olinadigan konlarning jadvalini tuzing.

### **VIII-sinf. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**

#### **Elektroenergetika (12-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari**

**1-Topshiriq.** Darslikdagi karta-sxemadan foydalanib, O‘zbekistondagi elektrostansiyalar ro‘yxatini tuzing (24-26-rasm).

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>yirik</i>	<i>o‘rta</i>	<i>Mayda</i>
<i>Gidroelektrostansiyalar</i>			
1			
2			
3			
4			
<i>Issiqlik elektrostansiyalar</i>			
1			
2			
3			
4			

**2-Topshiriq.** Qo‘shimcha adabiyotlar, atlas va kartalar, ommaviy axborot vositalari (televidenie, gazeta va jurnallar, internet va b.)dan foydalanib, “O‘zbekiston elektroenergetika sanoati” mavzusida ma’ruza tayyorlang.

### **VIII-sinf. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**

#### **Rangli metallurgiya (15-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.**

**1-Topshiriq.** Quyidagi jadvalga O‘zbekiston hududlaridan qazib olinadigan rangli metallar nomi va shartli belgilarini yozing.

<i>Korroziya (zanlash)ga chidamli metallar</i>		<i>Issiqlikka chidamli metallar</i>		<i>Elektr tokini yaxshi o‘tkazadigan metallar</i>	
<i>Nomi</i>	<i>SHartli belgisi</i>	<i>Nomi</i>	<i>SHartli belgisi</i>	<i>Nomi</i>	<i>SHartli belgisi</i>

**2-Topshiriq.** “O‘zbekiston foydali qazilmalari” va “O‘zbekiston rangli metallurgiya sanoati” kartalarini solishtiring. Rangli metallurgiya sanoatining joylanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlang.

### **VIII-sinf. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**

#### **Mashinasozlik majmui (17-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.**

**1-Topshiriq.** Darslikdagi “Mashinasozlik majmuasi tarmoqlari” sxemasi va matndan foydalanib, daftaringizga O‘zbekiston mashinasozlik sanoati tarmoqlari ro‘yxatini tuzing. O‘ylab ko‘ringchi, mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishga qanday omillar ta’sir qiladi.

**2-Topshiriq.** Darslikning 48-betidagi “Asaka avtomobil zavodining ishlab chiqarish aloqlari” chizmasidan foydalanib, quyidagi jadvalni to‘ldiring.(Namuna)

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Korxonalar joylashgan hudud</i>	<i>Korxonalar nomi</i>	<i>Etkazib beriladigan mahsulot nomi</i>
1.	Angren	“O‘zbekrezinatexnika” birlashmasi	Rezina, g‘ildirak

### VIII-sinf. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

#### Dehqonchilik (27-dars).

**1-Topshiriq.** “Paxtachilikning boshqa tarmoqlar bilan aloqasi” chizmasini o‘rganing. O‘zbekistonda paxtachilik majmuasining vujudga kelishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan? Uning tarmoqlararo bog‘liqligi nimalardan iborat ekanligini daftaringizga yozing.

**2-Topshiriq.** Dehqonchilik tarmoqlarining kartadagi shartli belgilarini daftarga chizing va o‘rganing.

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Dehqonchilik tarmoqlari</i>	<i>Kartadagi shartli belgisi</i>
1	Paxtachilik	
2	SHolikorlik	
3	Sabzavotchilik	
4	Polizchilik,	
5	Tamakichilik	

### VIII-sinf. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

#### Toshkent iqtisodiy geografik rayoni (44-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.

**1-Topshiriq.** Rayonning geografik o‘rnini atlasdan belgilang. Berilgan jadvaldan ma’lumotlaridan foydalanib, quyidagi formula orqali iqtisodiy rayonning maydoni va aholisi soniga ko‘ra, O‘zbekistonda tutgan o‘rnini hisoblang.

$$T \times 100 / O' = S$$

bunda,

**T** - iqtisodiy rayon maydoni va aholisi soni

**O'** - O'zbekiston maydoni va aholisi soni

**S** - rayon maydoni va aholisi sonining respublikadagi ulushi.

	Maydoni, ming km.kv	Aholisi, mln.kishi (2014y)
O'zbekiston Respublikasi	448,9	
Toshkent iqtisodiy rayoni	15,26	4,9

### **VIII-sinf. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**

#### **Transport geografiyasi (36-dars) mavzusi uchun mustaqil ish topshiriqlari.**

**1-Topshiriq.** Faraz qiling, Siz Farg'ona shahridan Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahriga sayohatga chiqdingiz. Buning uchun qanday transport turlaridan foydalanishni va qaysi shaharlar orqali o'tishni o'ylab ko'ring. Marshrutingizni kontur kartaga tushiring. Yo'ldagi tabiiy va iqtisodiy geografik ob'ektlarni quyidagi jadvalga yozing.

Transoprt turi	Tog'lar	CHO'llar	Daryolar	Ko'llar va suv omborlari	SHaharlar va sanoat korxonolari	Boshqalar
----------------	---------	----------	----------	--------------------------	---------------------------------	-----------

#### **2.3 O'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarida mustaqil ishlarning tutgan o'rni.**

Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va ta'lim to'g'risidagi "Qonun"ning qabul qilinishi natijasida ta'lim - tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi ro'y bermoqda, yangi texnologiyalar kirib kelmokda. Yangi metodikalarni talab etadigan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantiradi.

Hozirgi kundagi pedagogik nashrlarda texnologiya atamasini xilma xil talqin etilishi holatini kuzatishimiz mumkin: o'qitish texnologiyasi, innovatsion

texnologiya, o'quv jarayoni texnologiyasi, ma'lumot texnologiyasi, tarbiyaviy texnologiyasi va boshqalar.

Pedagogik texnologiyaga "innovatsiya" yoki "yangi" so'zini qo'shib qo'llanilishi ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko'rsatadi.

Uslubchi olimlar tomonidan "Pedagogik texnologiya", "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "innovatsion texnologiya" kabi tushunchalar turlicha izohlanmoqda. Bular orasida YUNESKO tomonidan berilgan quyidagi ta'rif e'tiborga loyiqdir: "Pedagogik texnologiya bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir."

"Texnologiya" so'zi yunoncha bo'lib, "texne"-mahorat, san'at, "logos" – ta'limot ma'nolarini bildiradi. Bu so'z sanoatda yoki qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan usul va uslublar yig'indisini bildiradi. Ta'lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarishni anlatadi. Boshqacha aytganda ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati demakdir.

Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondoshuvga asoslanadi. Bu ta'lim jarayoniga innovatsion yondoshuv demakdir. Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or uslub va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini ta'lim jarayoniga har bir o'quvchi shaxsi, ruhiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion uslublar sifatida taqdim etilmoqda. SHulardan geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ayrim uslub va usullarga to'xtalib o'tamiz.

1. Modulli ta'lim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan **mustaqil ishlash** ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatish, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuvini vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masala va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalarning to'g'riligini tasdiqlash.


4. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

5. Interfaol uslub texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini yaratish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan o'qitishning innovatsion uslublarida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mustaqil mulohaza yuritish, o'z fikrini bildirish, bayon etish xamda zarur ko'nikmalarni shakllantirish alohida o'rin tutadi.

Geografiya darslarini shunday tashkil etish kerakki, unda o'qituvchi faqat materialni ifodalovchi, o'quvchilar esa tinglovchi bo'lib qolmasliklari kerak. Zamonaviy dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqilligini oshirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ta'limni muammoli tarzda tashkil etilishi,

o'quvchilarning zihnini uyg'otadigan, faollashtiradigan uslubiy tadbirlar joriy etilishi kerak.

*8-sxema. Geografiya darslarida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar.*



Demak, yangi mavzuni o'rganish – tushuntirishdan, bilimni bayon qilishdangina iborat bo'lmay, balki materiallarni mustaqil o'rganish yo'llari, usullarini o'rgatish bilan birga olib borilishi lozim.

Muayyan materialni mustaqil o'rganish o'quvchidan muntazam fikrlashni, nimanidir hal etishni talab qiladi. Ayrim masalalarni mustaqil hal etish uchun faktlarni qiyoslash, ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni, qonuniyatlarni qayta tiklashni talab etiladi. Mustaqil ishlarni asosan o'quvchilarning o'zlari bajarishlari kerakdek tuyulsada, darsda bajariladigan mustaqil ishni tashkil etishda asosiy mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Binobarin, yangi materialni bayon qilish, tushuntirish o'qituvchidan ortiqcha tayyorgarlik talab etmasligi mumkin. Yangi materialning muayyan qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladigan bo'lsa, uni obdon, puxta o'ylab tashkil etishga to'g'ri keladi. O'qituvchi tayyor materiallar berib o'qitsa, o'quvchilar xotirasi materiallar bilan boyishi mumkin, ammo ularning faoliyati, tafakkuri rivojlanmaydi.

Biz quyida geografiya kurslarida berilgan ayrim mavzularni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish yo'llariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'qitishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanib mustaqil ishlarni tashkil etishda barcha

materiklarning bir xil reja asosida o'rganilishi qulaylik tug'diradi. Materikning geografik o'rnini, chekka nuqtalarining koordinatalarini, materikning bo'yi va kengligini o'lchash ishlari mustaqil ish topshirig'i sifatida berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, Afrikaning geografik o'rnini boshqa usullar orqali o'rganilsa, Janubiy Amerikaning geografik o'rnini o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratgan holda, egallangan ko'nikma va malakalar asosida mustaqil ish sifatida o'rganilishi, bunda quyidagi topshiriqlardan foydalanish yuqori samara berishi mumkin:

**Mavzu: Janubiy Amerika materigining geografik o'rnini, o'rganish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Relifi mavzusini muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanib o'tishda beriladigan mustaqil ish topshiriqlari**

### I-guruh

**I-topshiriq.** Dengiz yo'li orqali Istanbul (Turkiya) shahridan Rio de Janeyro (Braziliya) shahrigacha karta bo'yab «sayohat» qiling. quyidagi savollarga javob tayyorlang:

1. Qaysi okeanning qaysi dengizlari orqali o'tasiz?
2. Qaysi bo'g'ozlardan o'tasiz?
3. Qaysi orol va yarim orollar yonidan o'tasiz?
4. Qaysi iqlim mintaqalari va iqlim oblastlarini kesib o'tasiz?
5. Siz kesib o'tgan iqlim mintaqalari va ularning tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang."

### II-guruh

**I-topshiriq.** Dengiz yo'li orqali Rio de Janeyro (Braziliya) shahridan Los Anjeles (AQSH) shahrigacha karta bo'yab «sayohat» qiling. Quyidagi savollarga javob tayyorlang:

1. Qaysi okeanning qaysi dengizlari orqali o'tasiz?
2. Qaysi bo'g'ozlardan o'tasiz?
3. Qaysi orol va yarim orollar yonidan o'tasiz?
4. Qaysi iqlim mintaqalari va iqlim oblastlarini kesib o'tasiz?
5. Siz kesib o'tgan iqlim mintaqalari va ularning tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang."

### III-guruh

**I-topshiriq.** Dengiz yo'li orqali Rio de Janeyro (Braziliya) shahridan Kalkutta (Hindiston) shahrigacha karta bo'yab «sayohat» qiling.

quyidagi savollarga javob tayyorlang:

1. Qaysi okean va dengizlari orqali o'tasiz?
2. Qaysi bo'g'ozlardan o'tasiz?
3. Qaysi orol va yarim orollar yonidan o'tasiz?
4. Qaysi iqlim mintaqalari va iqlim oblastlarini kesib o'tasiz?
5. Siz kesib o'tgan iqlim mintaqalari va ularning tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering."

**Mavzu: Quyi Amudaryo iqtisodiy geografik rayoni mavzusini**

O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining regional qismida dastlab Toshkent (44-dars) va Mirzacho‘l (47-dars) iqtisodiy rayonlari o‘tilganligi “Quyi Amudaryo iqtisodiy geografik rayoni” mavzusini muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanib mustaqil ish topshiriqlari asosida o‘tilishiga imkoniyat yaratadi. Sinf kichik guruhlarga bo‘linib, dars jarayonida quyidagi mustaqil ish topshiriqlaridan foydalanilishi mumkin:

**Kichik guruhlarga beriladigan mustaqil ish topshiriq va savollari (1)**

**I-guruh uchun beriladigan savollar.**

1. Quyidagi jadval bilan tanishing.

№		Maydoni ming km kv	Maydo ni foizda	Aholisi, ming kishi (2015y)	Aholisi foizda	O‘rtacha zichlik	Urbanizatsiya darajasi	
							Ming kishi	Foiz
1	O‘zbekiston Respublikasi	448,97	100,0	30,4	100,0	65,8	15143	51,2
2	Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni	172,7		3146,5				

2. Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida quyidagilarni hisoblab chiqing va jadvalni to‘ldiring.

- Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni Respublika maydonining necha foizini tashkil etadi?
- Respublika aholisining necha foizi Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida yashaydi?
- Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida aholining urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

**II-guruh uchun beriladigan savollar.**

1. Quyidagi jadval bilan tanishing

№		Maydoni ming km kv	Maydo ni foizda	Aholisi ming kishi (2015y)	Aholisi foizda	O‘rtacha zichlik	Urbaniz atsiya darajasi
	Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni	172,7	100,0	3146,5	100,0	18,2	43,7
2	Xorazm viloyati	6,1		1615,7		267	

2. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida quyidagilarni hisoblab chiqing va jadvalni to'ldiring.

- Xorazm viloyati iqtisodiy rayon maydonining necha foizini tashkil etadi?
- Iqtisodiy rayon aholisining necha foizi Xorazm viloyatida yashaydi?
- Xorazm viloyatida aholining urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

### III-guruh uchun beriladigan savollar.

1. Quyidagi jadval bilan tanishing.

№		Maydoni ming km kv	Maydoni foizda	Aholisi, ming kishi (2014y)	Aholisi foizda	O'rtacha zichlik	Urbani zatsiya darajas i
	<i>Quy</i> <i>Amudaryo</i> <i>iqtisodiy rayoni</i>	<b>172,7</b>	<b>100,0</b>	<b>7864,5</b>	<b>100,0</b>	<b>425,1</b>	<b>59</b>
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	7,44		2259,0		303,6	

2. Yuqoridagi ma'lumotlari asosida quyidagilarni hisoblab chiqing va jadvalni to'ldiring.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy rayon maydonining necha foizini tashkil etadi?
- Iqtisodiy rayon aholisining necha foizi Qoraqalpog'iston Respublikasida yashaydi?
- Qoraqalpog'iston Respublikasida aholining urbanizatsiya darajasi necha foizni tashkil etadi?

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiya o'quvchiga ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi, o'qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni talab etadi. Dars jarayonida o'quvchi faol ishlovchi shaxs bo'lib, u butun mashg'ulot jarayonida egallangan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo'llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma'lumdan noma'lumga qarab boradi. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati o'quvchini **mustaqil fikrlashga, mustaqil ishlashga** o'rgatish, bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otish demakdir.

## **XULOSA.**

Ushbu bitiruv-malakaviy ishda maktab geografiya ta'limida o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyati, ya'ni mustaqil ishlarini tashkil etishning ahamiyati, maktab geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish uslublari yoritildi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan ishlar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Maktab geografiya ta'limida mustaqil ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqilligini rivojlantirish, ularni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ayni vaqtda yoshlarni hayotga tayyorlashdan iborat.

2. O'quvchilar yangi fakt, hodisalarni aniqlash uchun o'z bilim va tajribalarini tadbiiq etsalar, ilgari ularga ma'lum bo'lmagan sabab va oqibatlarni izlasalar yoki masalani hal etishning yangi usullarini topsalar bunday ishni mustaqil ishlar deyish mumkin.

3. Mustaqil ish o'quvchilar qobiliyati va tayyorgarligiga mos, ular uddasidan chiqa oladigan, ayni vaqtda ularning fikrlash qobiliyatini, ijodiy tashabbusini rivojlantiradigan, ilgari egallangan bilim, ko'nikma va tajribadan foydalanishni taqozo etadigan bo'lishi lozim.

4. Mustaqil ishlarning turi va mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarligiga va individual xususiyatlariga mos kelishi, ishning natijasi o'quvchilarga yangilik berishi shart.

5. Har bir mustaqil ish natijasi o'z vaqtida tahlil qilinishi, muhokama qilib, baholanishi, mustaqil ish natijalari esa ta'lim jarayonida foydalanilishi maqsadga muvofiq.

6. O'quvchilarning mustaqil ishlari mukammal o'ylab tuzilgan topshiriqlar tizimi asosida va muntazam olib borilgandagina yuqori samara beradi.

7. Geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlarni yuqorida sanab o'tilgan turlaridan geografiya o'qituvchisi o'z imkoniyati, o'quvchilarning

tayyorgarlik darajasi, o'rganiladigan kursning mazmuni va o'quv-moddiy baza (ta'lim vositalari)ning mavjudligiga qarab foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

8. Geografiya ta'limi jarayonida mustaqil ishlar asosan yangi materialni o'rganishda va o'tilgan mavzuni mustahkamlashda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladi.

9. Geografiya ta'limida mustaqil ishlar tizimini **mustaqil ish turlari** bo'yicha ishlab chiqish yaxshi samara beradi. Mustaqil ish tizimlarini maktab geografiya kurslari bo'yicha, bilim tarkibi (komponentlari) bo'yicha, didaktik maqsadlar bo'yicha hamda bilim manbalari bo'yicha turlarga ajratish mumkin.

10. Geografiya kurslari materiallarini o'rganish jarayonida bajariladigan mustaqil ishlar o'quvchilarga geografik qonuniyatlarni, yangi tushuncha, bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirish, mustaqil bilim olishga oid zarur malakalarni takomillashtirish imkoniyatini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.–T., “Ma'naviyat”, 2008.-176 b.
2. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, 2003.-24-38b.
3. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.-18b.
4. Ahmadaliev A., Qosimov A. Innovasion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent,2006.-60b
5. 2006.Ishmuhammedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent, UDAP. 2004.-28b
6. Ishmuhammedov R., Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent, 2005.-52b.
7. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b
8. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: 2000.-52b.
9. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash: (Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) / – T.: Sharq, 2000. – 112 b.
10. Musaev P., Musaev J. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. (8-sinf uchun darslik). Toshkent, 2010-120b.
11. Rasulova L., Zokirov Sh., Yangi pedagogik texnologiyalar - Farg'ona, 2000.
12. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent, 2003.
13. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. - Toshkent: YUNISEF, 2005.
14. Tolipov O'., Usmonboeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 2006. – 149-175b.

15. Usmanova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T.: O'zbekiston, 2000. – 23 b.
16. Shojalilov A., Abduraximov S., G'ofurov S., Yusupov F. "Injenerlik pedagogikasi va ilg'or pedagogik texnologiyalar" T.: 2004.- 29-44b.
17. G'ulomov P., Qurboniyozov R. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi. 5-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'zbekiston", 2003.-134b
18. Geografiya o'quv fanidan umumta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standarti (5-9 sinflar). Toshkent, 2014.
19. G'oziev E., Toshimov R. "Pedagogik faoliyatingizni baholashni uddalaysizmi?" T. 2001.-36b.

### **Internet saytlari**

1. <http://book.inf.uz>
2. <http://www.twirpx.com/files/common/geography/dictionaries/>
3. <http://www.twirpx.com/files/common/geography/refs/>
4. <http://www.twirpx.com/files/common/geography/course/>
5. <http://www.edunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti
6. <http://www.scholar.urc.ac.ru/courses/telecom-maktabda>  
telekommunikatsiyani o'qitish metodiyoti.